

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

QO‘YLIYEVA GULCHEHRA NAZORQULOVNA

O‘ZBEK NASRIDA ROMAN-TETRALOGIYA

(Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Table of contents of the abstract of the dissertation of Doctor of Philology (DSc)

Qo‘yliyeva Gulchehra Nazorqulovna

O‘zbek nasrida roman-tetralogiya (Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida).....

Куйлиева Гулчехра Назаркуловна

Роман-тетралогия в узбекской прозе (на примере романа-тетралогии Мухаммеда Али «Вечный мир »)

Qo‘yliieva Gulchekhra Nazarqulovna

Novel-tetralogy in Uzbek prose (based on the example of Muhammad Ali’s novel-tetralogy “The Great Kingdom”).....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

QO‘YLIYEVA GULCHEHRA NAZORQULOVNA

O‘ZBEK NASRIDA ROMAN-TETRALOGIYA

(Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.DSc/Fil265 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy maslahatchi:

Yakubov Islamjon Axmedjanovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yo'ldoshev Qozoqboy Boybekovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Qahramonov Qurdosh Yalg'ochevich
filologiya fanlari doktori, professor

Hamroqulova Xurshida Quvvatovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-54-17; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-54-17), faks: (99871) 246-02-24

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi. (2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Rahmonov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash raisi, f.f.d., professor

M.B.Xujamkulova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash kotibi, f.f.f.d.(PhD)

D.R.Yusupova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida tarixiy roman va roman-tetralogiya janriy shaklining tabiatini o'rganish hamisha dolzarb sanalib kelingan. Jumladan, roman-tetralogiya janrining tarkibiy tuzilishi, tarixiy-adabiy asoslari, jahon adabiyotidagi analoglariga mushtarak va o'ziga xos belgi-sifatlari, poetik mushohada obyekti, jamiyat joriy holatini badiiy idrok etish ko'lamini, odam va olam qismatini ifodalash imkonlari, tarixiy konseptuallik, muallif madaniy-e'tiqodiy qarashlari, adiblar tayangan tarixiy-adabiy manbalar, adabiy-estetik konsepsiya va estetik tamoyillar, joriy adabiy jarayonda namoyon bo'lgan roman-tetralogiyalarning adabiyotshunoslikdagi talqinlari, poetik mahorat sirlari singari muammolar tahlil va tadqiq etilgan.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy roman-tetralogiya janriy shakllari genetik ildizlari va taraqqiyot tamoyillari, tarqalish areallari, syujet rivojining muallif badiiy niyati bilan bog'liqligi, muallif badiiy-estetik konsepsiyasi, turkumlilik, tetralogiya qismlariaro xronologik va mantiqiy ketma-ketlik, g'oyaviy-mafkuraviy mazmun va syujet umumiyliigi, kompozitsion yaxlitlik, obraz va xarakterlar, harakat maydoni va vaqt birligi, tarixiy konseptuallik kabi masalalar o'rganilib muayyan nazariy umumlasmalar chiqarilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida sho'ro totalitar adabiy-siyosiy mafkurasi tobe millatlari tarixiy o'tmish haqidagi keng qamrovli nasriy asarlar yaratishga tabu qo'ygani, mustaqillik davri plyuralistik tafakkuri ijod ahliga bergan imkonlar, ilk roman-tetralogiyaning yuzaga kelishi singari masalalar ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Joriy adabiy jarayonda uzoq yillar davomida roman-tetralogiya shakli mavjud bo'lmagani tufayli jahon adabiyotshunosligining nazariy yutuqlari hanuz to'la o'zlashtirilmadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda roman-tetralogiya yaratish yo'lidagi badiiy izlanishlar, roman-tetralogiyada adabiy-estetik ifoda ko'p qatlamligi, shakliy alohidalik va turkumlilik, syujet va kompozitsiya, obraz va xarakterlar talqini, estetik-emotsional hamda intellektual ta'sir, poetik mahorat singari masalalar ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Shuningdek, yaqin o'tmishda yaratilgan ayrim tarixiy tetralogiyalarni qayta idrok etish va xolis estetik baholash mayli kuchaygan. Ammo hanuzgacha bunday ijobiy yutuqlar nazariy-metodologik jihatdan yetarlicha umumlashtirilmadi. Ushbu dissertatsiya ham janrning roman-tetralogiya shakli bilan bog'liq nazariy asoslarni to'la ishlab chiqish, Sharq va G'arb adabiyotlari kontekstida qiyosiy-tarixiy metod negizida o'rganishdek g'oyat salmoqli muammoni hal qilishni bevosita maqsad qilmaydi. Zotan, keng ko'lamli bu ish maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Dissertatsiya ilk roman-tetralogiya shaklining o'zbek nasrida yuzaga kelish omillari va mohiyati yaxlit adabiy jarayon kontekstida tahlil va tadqiq qilingani, asar postsovet makonida yashovchi turkiy xalqlarga o'zaro integratsiyalashish imkonini berishi, roman-tetralogiya shakli tabiatida ichki kengayish – neosintetiklik sodir bo'lgani, badiiy ifoda tarzida assotsiativlik va liro-romantiklik tomon siljish yuzaga kelib, bu janr modifikatsiyaga uchragani, asardagi obrazlar olami, badiiy ijod laboratoriyasi,

badiiy-estetik konsepsiya kabi qator masalalar tahlil va tadqiq etilib, muayyan nazariy umumlashmalar chiqarilgani ushbu tadqiqot mavzusining zaruriyati va dolzarbligini tasdiqlaydi. Zotan, *“O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya‘ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi”*¹. Sohibqiron bobomizning tarixiy qiyofasi va badiiy siymosi poetik talqinlari hanuz to‘liq tadqiq qilinmagan. Vaholanki, bu tarixiy-adabiy mavzu davr adabiy jarayoni va yaxlit badiiy adabiyot kontekstlarida chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF- 6108-son “O‘zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Roman-tetralogiya janrida rus va jahon adabiyotida yuzaga kelgan va aksariyati rus tilida nashr qilingan asarlar metod, janr, muallif va qahramon, epik bayonchi obrazi, makon va zamon, syujet, kompozitsiya, arxetip obrazlar, tetralogiyaning turkum hosil qiluvchi unsurlari, ifoda uslubi, xalq tarixi konsepsiyasining namoyon bo‘lish shakllari (Moskva davlat pedagogika universiteti), tetralogiya poetikasida motivlarning o‘rni (Tyumen davlat universiteti), fantastik mifopoetika (Rostov Janubiy federal universiteti), tarixiy konseptuallik, badiiy mahorat, ijodiy individuallik (Shimoliy Arktika federal universiteti) muammolari nuqtai nazaridan dissertatsion tadqiqotlar shaklida o‘rganilgan.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. // “Халқ сўзи” 30 сентябрь, 2020 йил.

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: www.iup.edu, www.illinois.edu, www.wisc.edu, www.k-state.edu, www.uoregon.edu, www.umontreal.ca, www.dgu.ru, www.nosu.ru, www.academics.tjhsst.edu, www.worldcat.org, www.worldcat.org, www.frantiq.fr, www.amazon.com, www.nuu.uz, www.tashgiv.uz.

Amir Temurning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar jahonning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Académie française (Fransiya), Indiana University of Pennsylvania, University of Illinois at Urbana-Champaign, University of Wisconsin – Madison, Kansas State University, University of Oregon (AQSh), Monthreal University (Kanada), Dog‘iston davlat universiteti va Shimoliy Osetiya davlat universiteti (Rossiya), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), O‘zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Xalqaro Amir Temur xayriya jamg‘armasi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Jahon ijtimoiy fanlari tizimida badiiy adabiyotda Amir Temur siymosining yoritilishiga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Amir Temurning dunyodagi eng yirik hukmdorlar va sarkardalar orasidagi o‘ziga xos o‘rni aniqlangan (Fransiya akademiyasi), Amir Temurning Anatoliyaga yurishi bilan bog‘liq ijobiy jihatlar isbotlangan (Buxarest universiteti, Ruminiya), Amir Temur va Kastiliya qiroli o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning ijtimoiy va siyosiy sabablari asoslagan (Madrid Qirollik universiteti, Ispaniya), Kristofer Marloning «Buyuk Amir Temur» tragediyasida Sohibqiron siymosi talqini va uning jahon tarixidagi o‘rni aniqlangan (Indiana, Pensilvaniya, Kanzas, Oregon va Viskonson-Madison universitetlari, AQSh), Amir Temur va Derbent xoni hamda Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi muxolifatlarning badiiy adabiyotda yoritilishi ochib berilgan (Dog‘iston va Shimoliy Osetiya davlat universitetlari, Rossiya), Movarounnahrning XIV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshidagi xalqaro aloqalari va Amir Temurning undagi o‘rni isbotlangan (Xo‘jand davlat universiteti, Tojikiston), o‘zbek va arab adabiyotlarida Amir Temur siymosi talqinlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti), “Amir Temur bibliografiyasi” tayyorlanib, nashr etilgan (Temuriylar tarixi davlat muzeyi), badiiy, hujjatli filmlar va telefilmlar yaratilgan (Xalqaro Amir Temur xayriya jamg‘armasi).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslik terminlari qomusiy lug‘atlarida tetralogiya termini personajlar birligi, syujet, kompozitsiya, harakat maydoni hamda vaqti bilan bog‘lab izohlanadi³. Murakkab va salmoqli milliy-tarixiy ahamiyatga molik voqealar, aks etishi, tarixning burilish nuqtasida hayot sahnasiga chiqqan mard, jasur, kurashchan qahramonlar va ular atrofida jipslashgan el-ulus qismati tasvirlanishi ta’kidlanadi⁴. Roman-tetralogiyalar rus va

³ Мокульский С.С., Марков П.А. Театральная энциклопедия. – Советская энциклопедия, 1967. – Т. 5. – С. 195; Борухович В.Г. Вечное искусство Эллады. – Алетея, 2002. – С. 458; Федь Н.М. Искусство комедии или мир сквозь смех. – Наука, 1978. – С. 217; Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н. Николюкина. – Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. – Стб. 1074 – 1596.

⁴ Эпопея // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина – Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. – Стб. 1236-1238 – С.1596; Эпопея // Словарь литературоведческих терминов / Ред.-сост.: Л.И. Тимофеев и С.В. Тураев. – М.: Просвещение, 1974. – С. 472-475.

jahon adabiyotshunosligida dissertatsion tadqiqotlar shaklida muayyan darajada o'rganilgan. Masalan: tadqiqotchi Veniamin Xanovning "Nikolay Kochinning "Semyon Paxarev" avtobiografik tetralogiyasi (metod, janr, uslub)"⁵ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida avtobiografik tetralogiyaning janr xususiyatlari, adabiy qahramon Semyon Paxarov hayotining xalq turmushi bilan uyg'unlikda ifodalanishi, janr va uslub muammolari tahlilga tortilgan.

Tadqiqotchi Marina Krilovaning "Nikolay Garin-Mixaylovskiyning "Tyomaning bolaligi", "Gimnaziya o'quvchilari", "Talabalar", "Muhandislar" avtobiografik tetralogiyasi: (Janr muammosi)"⁶ mavzusidagi nomzodlik ishida avtobiografik tetralogiya muallif va qahramon, epik bayonchi obrazi, makon va zamon, syujet, kompozitsiya, arxetip obrazlar, tetralogiyaning turkum hosil qiluvchi unsurlari, ifoda uslubi kabi masalalar tadqiq qilingan.

Moskva davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi Andrey Meteleshnikovning "M.A.Aldanovning "Mutafakkir" tetralogiyasida rus tarixi konsepsiyasi va uning namoyon bo'lish shakllari"⁷ nomli nomzodlik ishida Mark Aldanovning fransuz inqilobi va Napoleon davri voqealari haqidagi "Mutafakkir": "To'qqizinchi Termidor" (1921. "Muqaddas Yelena, kichik orol" (1921) , "Iblis ko'prigi" (1924), "Fitna" (1926) tetralogiyasida shaklning mazmun bilan chambarchas bog'liqligi, bu hol M.A.Aldanovning nafaqat badiiy g'oyalar va poetik ifoda vositalarini tanlash yo'sini, balki muallif adabiy merosi uchun xarakterli bo'lgan metamatnlarni⁸ yaxlitlikka biriktirishdagi aloqadorlikni ta'minlovchi o'ziga xos mexanizm ham ekani o'rganilgan.

Tyumen davlat universiteti tadqiqotchisi Nina Karmaskixning "M.Aldanovning "Mutafakkir" tetralogiyasi poetikasi (Motiv aspektida)"⁹ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida yozuvchining poetik motivlardan foydalanish mahorati tahlilga tortilgan. Jumladan, badiiy motivning syujet va fabulani shakllantirishdagi roli, makon hamda zamon bilan shartlangan motivlarning badiiy vazifalari, motiv va adabiy qahramon munosabatlari, ularning muallif dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqligi, tetralogiya intermatniy qatlam singari muammolar o'rganilgan.

Rossiya Federatsiyasi Rostov viloyati Janubiy federal universiteti tadqiqotchisi Yuliya Xoroshevskayaning "Nil Geymanning "Amerika xudolari" romani va Den Simmonsning "Giperion qo'shiqlari" tetralogiyasida fantastik mifopoetika"¹⁰ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida mazkur asarlar mifopoetik

⁵ Ханов В.А. Автобиографическая тетралогия Н.Кочина «Семен Пахарев» (метод, жанр, стиль) – автореф дисс.. канд. филол. наук. – Горький. 1984. – автореф дисс.. канд. филол. наук. – С.22.

⁶ Крылова М.А. Автобиографическая тетралогия Г.Г.Гарина-Михайловского ("Детство Темы", "Гимназисты", "Студенты", "Инженеры") : Проблема жанра – М. 2000. –дисс.. канд. филол. наук. – С. 288.

⁷ Метелешников А.А. Концепция русской истории и формы ее воплощения в тетралогии М.А.Алданова «Мыслитель». – автореф дисс.. канд. филол. наук. – М. 2000. – С. 17.

⁸ Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных наук. – М., 1986. – С. 281-308.

⁹ Кармацких Н.В. Поэтика тетралогии М.Алданова «Мыслитель» (Мотивный аспект) – автореф дисс.. канд. филол. наук. – Тюмень 2009. – С. 22.

¹⁰ Хорошевская Ю.П. Мифопоэтика фантастического в романе Нила Геймана "Американские боги" и тетралогии Дэна Симмонса "Песни Гипериона" – автореф дисс.. канд. филол. наук – М., 2018. – С. 20.

asoslari va zamonaviy nasrda transformatsiyaga uchrash jarayonlari tahlilga tortilgan. Jumladan: olamning mifopoetik modeli, muqaddas tushunchalar va nopoklik o'rtasidagi binar va global ziddiyat, mifologik makon va zamon munosabatlari baliy talqini, olamni mifologik qabul qiluvchi o'ziga xos adabiy qahramon tiplari, shuningdek, muallif dunyoqarashi, badiiy mahorati muammolari o'rganilgan.

M.V.Lomonosov nomidagi Shimoliy Arktika federal universiteti tadqiqotchisi Olga Golotvinaning "M.A.Sholoxov va F.A.Abramov epik asarlarida milliy o'zlik konsepsiyasi va uning badiiy yechimi (M.A.Sholoxovning "Tinch Don" epopeyasi va F.A.Abramovning "Aka-ukalar va opa-singillar" tetralogiyasi asosida)"¹¹ mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida milliy o'zlik tushunchasi etimologiyasi, bu g'oyaning rus xalqi tafakkuridagi shakllanish tarixi o'rganilgan. Tadqiqot uchun obyekt vazifasini o'tagan har ikkala adibning ijodiy shaxsiyati, o'zaro munosabatlari, axloqiy-falsafiy qarashlari, qahramonlari xarakteri, bu yozuvchilar qo'llagan poetik vositalar tizimi, real va badiiy haqiqatni ifodalashning usul va vositalari kabi masalalar qiyosiy tadqiq etilgan.

Irina Makrushina "M.Aldanov romanlari: Falsafa, tarix va poetika"¹² nomli dissertatsion tadqiqotida Mark Aldanovning "Mutafakkir" asarida tarixiy konseptuallik, falsafiylik, Gyote kornavallashtirish usuli ijodiy o'zlashtirilishi, poetik uslub, badiiy mahorat, ijodiy individuallik kabi muammolarni tadqiq etgan.

Rus va jahon adabiyotshunoslari: L.I.Preobrajenskaya, E.A.Baliburov, V.A.Pesterev, S.V.Gayjynas, V.D.Dneprov, N.S.Gulius tadqiqotlarida ham janr kompozitsiyasi, modifikatsiyasi, makon va zamon, adabiy mistifikatsiya kabi nazariy masalalar o'rganilgan¹³.

Yurtimiz tarixi, xususan, Amir Temur shaxsiga bag'ishlangan tarixiy, ilmiy va adabiy asarlar xorijda ham talaygina¹⁴. Tarixshunos olim I.Mo'minov risolasi, shuningdek, Sh.Uljayeva, D.Abidjanova, B.Usmonov, D.Kurbonova, A.Raxmatullayeva, X.Fayziyevlar dissertatsion tadqiqotlarida Amir Temur va

¹¹ Концепция национальной идентичности и её художественное решение в эпических произведениях М.А. Шолохова и Ф.А. Абрамова: на материале романа эпопеи «Тихий Дон» и тетралогии «Братья и сестры» – автореф дисс.. канд. филол. наук – Архангельск, 2018. – С. 24.

¹² Макрушина И.В. Романы М.Алданова: Философия истории и поэтика – автореф дисс.. канд. филол. наук – М., 2001. – С. 24.

¹³ Преображенская Л.И. Ситуация кризиса границы и перестройка композиционной структуры в романе-антиромане Р.Л.Стивенсона «Мастер Баллантра» // Мировая литература в контексте культуры, под редакцией проф. Н.С.Бочкаревой. – Пермь: 2006. – С.146; Балибуров Э.А. Художественно-философский неосинкретизм в русской литературе начала XX века. – Автореф. дисс.докт.филол.наук. – Новосибирск: 2006. – С.7; Пестерев В.А. Модификации романной формы в прозе Запада второй половины XX столетия. – Волгоград: 1999. – С. 159; Гайжынас С.В. Роман воспитания (динамика жанровой структуры). – Вильнюс: 1984. – С.16.; Днепроv В.Д. Идеи времени и формы времени. – М.: 1977. – С. 419; Гулиус Н.С. Художественная мистификация как прием текстопорождения в русской прозе 1980 – 1990-х гг. (А.Битов, М.Харитонов, Ю.Буйда). – Автореф. дисс. канд. филол.наук. – Томск: 2006. – С. 6.

¹⁴ Мелвилл Чарльз. Беатрис Форбс Манц. Власть, политика и религия в Тимуридском Иране.// Зеркало. апрель 2010 г. 85(2): – С. 429-430; Вудс Дж.Э. Генеалогия Тимура., Интеллектуальные исследования ислама., Очерки, написанные в честь Мартина Б. Диксона. – Ред. Мишель М.Маззауи и Вера Б.Морен – Издательство Университета Юты: Солт-Лейк-Сити, 1990. – С. 85-125; Его же. Династия Тимуридов. // Документы о Внутренней Азии № 14, Научно-исследовательский институт Внутренней Азии, Университет Индианы. – Блумингтон, 1990; Его же. Расцвет историографии Тимуридов. // Журнал Ближнего Востока Исследования 48 (1987). – М. 81-108 ва 6.

temuriy shahzodalar davrida milliy davlatchilik rivoji, tashqi siyosat masalalari bilan bog'liq o'zbek, rus va ingliz tillaridagi manbalar, shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi muzeylarda saqlanayotgan temuriylar davriga oid madaniy yodgorliklar tadqiq etildi¹⁵.

Bu sohaga o'tgan asrning 70-90-yillarida birinchilar qatorida qo'l urgan sharqshunos olimlar: U.Uvatov, X.Karomatovlarning dissertatsion tadqiqotlarida Ibn Arabshoh asari nashr varianti, tarjimasini, K.Marlo qalamiga mansub "Buyuk Temurlang" tragediyasining manbalari, asliyatini va o'zbekcha tarjimasini o'rganildi¹⁶. D.Rasulmuhamedova, M.Xamrayevalar mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari, o'zbek tarixiy romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqinlari, nasriy asarlarda Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy haqiqat va badiiy talqin nisbatini kabi masalalarni tadqiq etishdi¹⁷.

O'zbek, turkman, qozoq, belorus, ukrain, moldovan, rus, fransuz xalqlari adabiyotshunosligida tarixiy roman janri turfa shakllari tayanch manbalari, tarkib topishi, taraqqiyot tamoyillari, adabiy an'ana, mushtaraklik va o'ziga xoslik, olam va odam konsepsiyasi ifodalanishi, xarakterlar ruhiyatini tasvirlash usullari, tipologiya, poetika muammolari negizida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan¹⁸.

¹⁵ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва roli. Иккинчи нашри. "Фан" нашриёти, – Т.: 1993. – Б. 56; Ульжаева Ш.М. Историография эпохи Амира Темира и темуридов 50-60-х годов XX века (на примере литературы советского периода): Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т.: 1999. – С. 27; Шу муаллиф: Амир Темур салтанатида миллий давлатчиликнинг ривожланиши: Тарих фан. док. дисс. автореф. – Т.: 2008. – Б. 45; Абиджанова Д.С. Маверауннахр эпохи правления Амира Темира в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в. Автореф. дисс.канд. ист. наук. – Т.: 2001. – С. 26; Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX асрлар). Тарих фан. ном. дисс. автореф. – Т.: 2004. – Б. 27; Курбонова Д.А. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фан. док. дисс. автореф. – Т.: 2009. – Б. 30; Рахматуллаева А.Р. Историография жизни и деятельности Амира Темира в Узбекистане (1991-2009). Автореф. дис. канд. ист. наук. – Т.: 2010. – С. 31; Файзиев Х.Т. Темурийлар салтанатида Шохрух Мирзонинг ўрни ва унинг ташқи сиёсати. Тарих фан. ном. дис. – Т.: 2011. – Б. 193.

¹⁶ Уватов У. Ибн Арабшох ва унинг "Ажойиб ал-мақдур фи навоиб Темур" асари. (1305) 1887-1888) йилги Қоҳира нашри бўйича). Филол. фан. канд. дисс. Қисм 1: – Т.: 1974. – Б. 240.; Уватов У. Ибн Арабшох "Ажойиб ал-мақдур фи ахбори Темур" асарининг таржимаси. Филол. фан. канд. дисс. Қисм 2: – Т.: 1974 – Б. 91; Кароматов Х.С. Истоки, оригинал и узбекский перевод трагедии Кристофера Марло «Тамерлан Великий». Дисс. канд. филол. н. – Т.: 1990. – С. 172.

¹⁷ Расулмухамедова Д.Т. Истиклол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т.: 2000. – 21; Юсупова Г.А. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадий талқини. Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Т.: 2005. – Б. 26; Хамраева М.А. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (насрий асарларда Амир Темур образи): Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т.: 2010. – Б. 22.

¹⁸ Ауэзова Л. Исторические основы эпопеи «Путь Алая» – Алма-ата. Наука, 1969; Мирвалив С. Ўзбек романи. – Т.: Фан, 1969; Шу муаллиф: Ўзбек адабиётида роман жанрининг таркиб топиши ва тараққиёти. Филол. фан доктори... дисс. – Тошкент, 1971; Прошкович Л. Белорусский исторический роман (становление жанра). Автореф дисс.. канд филол. наук. – Минск, 1977; – С. 24; Сейтан Н.М. Молдовский исторический роман. Автореф дисс.. канд филол. наук. – Саранск, 1977; – С. 24; Мирвалив С. Роман ва замон – Т.: Фан, 1983; Ленобль Г.М. История и литература. – М.: Художественная литература, 1977; Леонтович О.В. Исторический роман в творчестве писателей Туркменистана. Автореф дисс.. канд филол. наук. – Ашхабад, 1978 – С. 24; Осоецкий В.Д. Роман и история. Традиции и новаторство советского исторического романа. – М.: Художественная литература, 1980; Султонов И.О. Ўзбек насри тарихидан. – Т.: "Фан", 1982; Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат. – Т.: "Фан", 1982; Петров С.М. Русский исторический роман XIX в. – М.: Художественная литература, 1984; Александрова Л. Советский исторический роман: Типология и поэтика. – Киев: Вища школа, 1987; Чумак В.Г. Украинский советский исторический роман 60-80-х годов. (проблема исторической художественной правды). Автореф дисс.. док-ра филол. наук. – Киев., 1989; Ўрта

Ularining nazariy umumlashmalari tarix haqiqati va roman-tetralogiya imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarimizni ham yanada boyitadi.

Muhammad Alining ilk dostonlari, she'riy va nasriy yo'sinda bitgan romanlari hamisha adabiyotshunoslik nazarida bo'lib kelgan¹⁹. Uning "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi P.Qodirov, R.Haydarova, T.Hayit, S.Ashur singari nosirlar va shoirlarning e'tiboriga tushdi. Adibning ustozlari, hamkasblari, izdoshlari ushbu asar yutuqlarini e'tirof etishdi²⁰.

Akademik olimlar: M.Qo'shjonov, N.Karimov, U.Uvatov, A.Saidov maqolalarida "Ulug' saltanat" tetralogiyasining yutuqlari ko'rsatilibgina qolmay, ayrim maromiga yetmagan jihatlari ham qayd etilgan²¹. Ushbu asar vaqtli matbuot sahifalari hamda ayrim to'plamlarda chop etilgan taqriz va maqolalar, adabiyotshunos olimlarning Muhammad Ali bilan qilgan adabiy suhbatlarida keng targ'ib qilindi. Tetralogiya mustaqillik bergan ulkan imkoniyatlar samarasi tufayli yuzaga kelgani, muallif sezilarli yutuqlarga erishgani, asarning syujeti, kompozitsiyasi va obrazlar olami masalalari tahlil qilindi²². Tarixiy tetralogiya

Осиё ва Қозоғистон адабиётларида роман жанри тараққиёти. – Т.: "Фан", 1991; Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. Т.: Халқ мероси, 1994; Норматов У. Қодирий боғи. –Т.: Ёзувчи, 1994; Барт Р. Эффект реальности // Барт Р. Избр. работы: Семиотика. Поэтика. – М., 1994. Зенкин С. Н. Теофиль Готье и традиции французского исторического романа // Зенкин С.Н. Работы по французской литературе. – Екатеринбург, 1999. – С. 211-221; Историзм узбекских исторических романов. Автореф дисс.. канд филол. наук. – Т.: 1992 – С. 24; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари. Автореф. филол. Фан. номзоди дисс. – Т.: 2001.– Б. 24; Касимова З. Концепция мираа и человека сквозь призму традиций национальной и мировой литературы. Автореф. Дисс... д-ра филол наук. – Т.: 2011; Муродов Ғ. Тарихий романнинг муштарак ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Филол. фан-ри док-ри дисс. – Т.: 2018.– Б. 248.

¹⁹ Оскоцкий В.Д. Интернационализм и национальные традиции в литературе. – М.: Знание, 1983.; Кудимова М. В. Чуть что. Современник. – М.: 1987; Юнусов М. Ҳаёт нафаси. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: 1981; Қўшжонов М. Ўтмишдан бир саҳифа. / Муҳаммад Али. Сарбадорлар.Тарихий роман дилогия. Сўзбоши. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.: 1997. – Б. 6; Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. – Т.: Фан, 1982; Шермухаммедов П. Истикболни ўйлаб. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.:, 1987 ва б.

²⁰ Қодиров П. Шоир ёзган роман. // "ЎзАС" 24 октябрь, 2003 йил; Ҳайдарова Р. Авлодлар зиммасидаги таъриф. // "Хуррият", 12 январь, 2011 йил; Тўлқин Ҳайит. Соҳибқирон салтанатига сафар. // "Китоб дунёси", 26 ноябрь, 2014 йил; Салим Ашур. Тарих – миллатнинг бўй-басти, ватаннинг жамоли. // "ЎзАС" 25 февраль 2022 йил.

²¹ Қўшжонов М. Ёзувчи камолотидан далолат. / Муҳаммад Али Улуғ салтанат. Тарихий тетралогия. Биринчи китоб. Жаҳонгир Мирзо. Сўнгсўз."ШАРҚ" НМАК Бош таҳририяти. – Т.: 2003. – Б. 328-333; Каримов Н. Тарих ва адабий жараён. / Мустақиллик даври адабиёти. Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, – Т.: 2006. – Б. 58; Уватов У. "Улуғ салтанат" тарихий эпопеясига бир назар. // "Тулистон" 2016, 2-сон; Назаров Б. Юксак тарихий эътиқодга муносиб самара. / Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогия. Тўртинчи китоб. Шоҳрух Мирзо. Сўнгсўз. "Шарқ" НМАК Бош таҳририяти, – Т.: 2013. – Б. 495; Саидов А. Улуғ салтанат ва улғувор аждодларимиз тараннум этилган асар. // "ЎзАС", 9 январь, 2015 йил.

²² Қосимов Б. Улуғ салтанат сирлари. // "Халқ сўзи", 18 март, 2003 йил.; Юсупов Ш. Олмос қирралар. // "Тошкент окшоми". 17 март, 2005 йил; Расулов А. Улуғ салтанатнинг шаклланиши. // "Жаҳон адабиёти", 2003 йил, ноябрь, – Б. 136-138; Раҳмонов Н. Тарихдан озиқланиб. – Т.: "Mumtoz so'z", 2019. – Б.15; Ёўлдошев Қ., Абдураззоков А. Бугуннинг одами тасвири. / Ёўлдошев Қ. Сўз ёлкини.. Ғафур Ғулом номидаги НМИУ. – Т.: 2018. – Б.357.; Тўраев Д. Улуғ салтанатнинг ёрқин саҳифалари. / Улуғ салтанат васфи. "MASHUR PRESS". – Т.: 2017. – Б. 116-130; Жумахўжа Н. Эпопеянинг ilk романи. // "Китоб дунёси", 8 апрель, 2015 йил; Ёқубов И. Изтиробли ва фараҳбахш туйғулар мусаввири.// "Тамаддун нури". 2016 йил, 1-сон; Солижонов Й. Тарих, замон ва ёзувчи масъулияти. // "Шарқ юлдузи", 2016 йил, № 7. – Б. 110-118; Алимбеков А. Тарих жозибаси. // "ЎзАС", 30 декабрь, 2005 йил. № 51-52; Шу муаллиф: Рўй-рост ёзиш ҳуқуқи. // "Шарқ юлдузи". 2003 йил.4-сон, – Б.146-148; Шу муаллиф: Бадиий тарих манзаралари. // "ЎзАС", 13 январь, 2006 йил, № 2; Шу муаллиф: Тарихий романчилигимизга бир назар. / Озод Ватан саодати. Адабий танқид. – Тошкент: Адиб, 2013.

haqida adabiyotshunoslar I.Yoqubov, M.Hamroeva, A.Alimbekov va D.To‘raevlarning monografiyalari yuzaga keldi²³. Ayrim maqolalar to‘plamlarida ham Muhammad Ali ijodi tahlilga tortildi²⁴. So‘nggi yillarda adabiy manbalar va badiiy adabiyotda Amir Temur obrazi talqinlari mavzusi, shuningdek, “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi bir qator dissertatsion tadqiqotlar uchun obyekt vazifasini bajardi²⁵. Bizning maqola va muallif bilan qilgan ijodiy suhbatlarimizda ham ushbu tetralogiya psixobiografik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va analitik aspektlarda o‘rganilgan²⁶. Yuqoridagi salmoqli tadqiqotlarning yutuqlarini e’tirof

²³ Ёкубов И. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. – Т.: Фан, 2007. – Б. 80; Ҳамроева М. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин. (Насрий асарларда Амир Темур образи). Монография. – Термиз: “Сурхон-Нашр”, 2019. – Б. 132; Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. Монография. – Т.: “Мухаррир”, 2012; Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. Монография. – Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017; Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Т.: Oqituvchi, 2020; Тўраев Д. Ўзбек тетралогияси. – Т.: Akademnashr, 2017.

²⁴ “Улуғ салтанат” васфи. “MASHHUR PRESS”, – Т.: 2017. – Б. 350; Замондошлар нигоҳида Муҳаммад Али. “Адабиёт” нашриёти, – Т.: 2022. – Б. 344; Мустақиллик даври адабиёти. Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, – Т.: 2006.

²⁵ Дадабоев. О. Ғарб ва Шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Т.: 2019. – Б. 148; Эрматов Б. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар). – Филол. фанлари доктори дисс... – Т.: 219. – Б. 232; Турсунова Р.А. Ғарбий Европа операларида Амир Темур образи. – Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2020. – Б. 26; Яхшиева З.Р. Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг бадий ифодаси. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Қарши 2021. – Б. 142; Мардонова Л. У. Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” роман-тетралогиясидаги образларнинг бадий поэтик талқини. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Қарши 2022. – Б. 137; Жумаев Э. Б. Мустақиллик даври ўзбек романларида Амир Темур образи талқинларининг қиссий таҳлили (Муҳаммад Али ва Нурали Қобул романлари мисолида). – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Қарши 2023. – Б. 147; Узоқов А. Х. Ўзбек прозасида Амир Темур образининг гавдаланиш тамойиллари. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Гулистон: 2023. – Б. 136.

²⁶ Qo‘ylijeva G.N.Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti // Namangan davlat universiteti Ilmiy Axborotnomasi. 2021, № 6. –B.283-287; Шу муаллиф: Тарихий асарларда шахс камолоти ва зиддиятлари тасвири // Guliston davlat universiteti axborotnomasi. № 4, 2022. –B. 97-101; Шу муаллиф: Бадий ижод жараёни сирлари // Илмий-адабий мулоқот. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. № 3/ 2022. –B. 109-113; Шу муаллиф: The truth of history and the greatness of human destiny in Muhammad Ali’s tetralogy “Ulug‘ saltanat”// O‘zMU Xabarlar. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 2023 – Т.: P. 257-261; Шу муаллиф: Tarix qatlarida inson taqdiri ulug‘vorligi // Namangan davlat Universiteti Ilmiy Axborotnomasi. №1, 2023. –B. 283-289; Qo‘ylijeva G.N. Yakubov I. “Умаршайх Мирзо” романида тарихий ҳақиқат ва лиро-романтик талқин // Science time. Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти. – Б. 6-18. 2022.; Qo‘ylijeva G.N. Tetralogiya da liro-romantik talqin uslubi// Guliston davlat universiteti axborotnomasi. № 1, 2024. – B. 234-237; Шу муаллиф: Tetralogiya da tarixiy obrazlar tasviri va qiyofasining ifodalanishi // QarDU axborotnomasi. № 1(1), 2024. –B. 113-118; Шу муаллиф: Roman-epopeya: tarixiy omillar va poetik o‘ziga xoslik // O‘zbekiston til va madaniyat. 2024 Vol 3 (1). –B 34-46; Шу муаллиф: Ritsarlik romanlarining uch tipi va sharq adabiyoti // O‘zbekiston til va madaniyat. 2024 Vol 3 (2). –B 26-34; Шу муаллиф: Mukammal konsepsiya – kompozitsion yaxlitlikni ta’minlash omili CENTER FOR Advanced Studies “Science Time” xalqaro ilmiy jurnali. ISSN:2992-8850 / №3.2023. – B. 15-23; Шу муаллиф: Interpretation of the image of Said Baraka in Muhammad Ali’s tetralogy “Ulug‘ saltanat” // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN:2249-7315. Vol 12, Issue 05, May 2022; Шу муаллиф: Character imagery and poetic expression in Muhamed Ali `s tetralogy “Ulug‘ saltanat”// “International conference on advabce research in humanites< sciences and education” Istanbul-Turkey Conference – 2023. P.314-319; Шу муаллиф: Roman-epopeyada g‘oyaviy konseptuallik // Zahiriddin Muhammad Boburning jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Farg‘ona – 2023, – B. 409-412.

Шу муаллиф: Tarixiy asarlarda ijodkorlik va yaratuvchanlikning tasviri// O‘zbekiston Respublikasi IIV Farg‘ona akademik litseyi Filologiya va tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –B. 311-314; Шу муаллиф: Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida xarakterlar tasvirining poetik ifodasi // O‘zbekiston Respublikasi IIV Farg‘ona akademik litseyi Filologiya va tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –B. 359-364; Шу

etgan holda, ta'kidlash joizki, ularning hech birida bizning tadqiqotimizda ko'tarilgan mavzu maxsus monografik ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Dissertatsiyaning oliy o'quv muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 27 "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi ustuvor ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy milliy nasrimizda istiqbol yillarida yuzaga kelgan ilk roman-tetralogiya modelining janriy-genetik ildizlari, tayanch manbalarini aniqlash, Muhammad Ali badiiy-estetik olami, ijodiy konsepsiyasi va muallif obrazining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi badiiy markazi sifatidagi o'rnini belgilash, shuningdek, tetralogiyada obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsion yaxlitlik muammolarini tahlil va tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Dissertatsiyadan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi.

Roman janriy shakllari genetik ildizlari va taraqqiyot tamoyillarini aniqlash. Milliy badiiy tafakkurda roman-tetralogiya modeli yuzaga kelishining ijtimoiy, adabiy-estetik omillarini tahlil va tadqiq etish. Tetralogiyaning milliy o'ziga xos hamda jahon romanchiligi bilan mushtarak jihatlarini belgilash;

"Ulug' saltanat" tetralogiyasining adabiyotshunoslikdagi tahlil va talqinlarini o'rganish va tasniflash. Jumladan, Amir Temur siymosining jahon tarixidagi o'rni va adabiy-badiiy talqinlarini o'rganish orqali ularning Muhammad Ali roman-tetralogiyasining yuzaga kelishiga ijodiy ta'sirini ko'rsatish. "Ulug' saltanat" tetralogiyasi tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik tahlil va talqinlarini o'rganib, muayyan nazariy umumlashmalar chiqarish;

Muhammad Ali badiiy-estetik olami va "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi o'rtasidagi mushtaraklikning namoyon bo'lish yo'sinlarini kashf etish. Muallif obrazi roman-tetralogiya badiiy markazi ekanini isbotlash. Tarixiy roman-tetralogiyaning tayanch manbalarini ko'rsatish;

tetralogiyaning obrazlar sistemasini tahlil va tadqiq qilish orqali syujet zanjirida personajlarning ulug' saltanat bunyodkori, bosh qahramon Amir Temur xarakterini ochishga xizmat qilishdagi g'oyaviy-estetik vazifasi, roman strukturasidagi o'rnini belgilash;

муаллиф: Tarixiy roman - epopeyada bosh qahramon va epizodik personajlar yaxlitligi/"G'afur G'ulom ijodiy merosining o'zbek va jahon adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman to'plami. – T.: 20.09.2023. – B.153-157; Шу муаллиф: Novel – epopeiad historical reality and a personal conception // Novateur Publications Journal NX- A Multidisciplinary Peer reviewed journal. ISSN No: 2581-4230. Volume 9, ISSUE, Mar. – 2023. – P. 262-269; Qo'yliyeva G.N. Saymuraova I., Jo'raqulov S. Interpretation of man and universe in historical epics // <https://doi.org/10.5281/zenodo.10439267> P-1-9. Uploaded on December 28, 2023; Qo'yliyeva G.N. Evolutionary development of tetralogy // For publication of paper entitled: Evolutionary development of tetralogy. In volume2, Issue 6 of European Scholar Journal(ESJ)Impact factor 7.235. June 2021; Шу муаллиф: Идеологическая концептуальность в роман-тетралогии // Perspectives of philology and practical possibilities of teaching foreign languages. Proceedings of the international conference Gulistan city, may 10-11, 2023. – С.182-184; Шу муаллиф: Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasining birinchi kitobi "Jahongir mirzo" romani haqida mulohazalar // Filologiyaning umumiy masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Jizzax, 2021. –B. 344-347.

Amir Temur, temuriyzoda shahzodalar-u malikalar obrazining badiiy talqinlarini o'rganish. Asar kompozitsion yaxlitligini ta'minlashda epizodik personajlarning rolini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali (Axmedov)ning "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi, uning tarixiy-adabiy manbalari va jahon adabiyotidagi analoglari olingan. Ushbu roman-tetralogiya haqidagi nazariy talqiotlar, yozuvchining kundaliklari va o'z ijodiy tajribalari haqidagi e'tirof va qaydlari ham tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi, shuningdek, markazlashgan davlat bunyod etish mavzusida Sharq va G'arb adabiyotlarida yuzaga kelgan tarixiy romanlar, XV asrdan hozirga qadar Sohibqiron Amir Temur va temuriy shahzodalar-u malikalar obrazlari bilan bog'liq voqea-hodisalar ifodalangan tarixiy-adabiy asarlar, xotiralar, sayohat kundaliklari va solnomalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, analitik, germeneytik va kompleks tahlil hamda tarixiy-funksional yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: quyidagilardan iborat:

Roman janriy shakllarining genetik ildizlari aniqlanib, taraqqiyot tamoyillari belgilangan. Jahon romanchiligida roman-tetralogiyaning yuzaga kelishi va yetakchi spetsifik belgilari aniqlanib, joriy adabiy jarayon kontekstida tahlilga tortilgan. Milliy romaniy tafakkur va roman-tetralogiya modelining yuzaga kelish omillari va zarurati dalillan;

jahonning nufuzli kutubxonalarida saqlanayotgan Amir Temur davri va shaxsiyati mavzusida yozilgan salmoqli tadqiqotlar va ulardan ilhomlanib yozilgan badiiy asarlar tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik aspektda tahlilga tortilgan. O'zbek nasrida ilk roman-tetralogiya istiqloldan keyin yuzaga kelishining asosiy omillari aniqlangan. "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi janriy belgilari aniqlanib, adabiy-tarixiy qimmatini belgilangan, estetik va ekspressiv ta'sir maydoni asoslangan;

roman-tetralogiyada muallif obrazi va ijodiy konsepsiyasi – hayotiy fakt va voqea-hodisalarni qanday tushungani, qaytarzda anglagani va hissiy idrok etgani bilan bog'liq nazariy qarashlar tizimi hamda tayangan estetik tamoyillari aniqlangan. Muallif obrazi roman badiiy markazi sifatida olib qaralib, "Ulug' saltanat" asari adibning badiiy-estetik olami bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganilgan. Roman-tetralogiyaning tayanch manbalariga tayangan holda, muallif badiiy-estetik olami, badiiy asar biografiyasi va yozuvchining ijod laboratoriyasi sirlari yoritilgan;

"Ulug' Saltanat" tetralogiyasida obrazlar sistemasi va personajlar ierarxiyasi, xususan, saltanat obrazi va Amir Temur shaxsi – syujet halqalarini birlashtiruvchi obrazlar ekani, roman-tetralogiyada temuriy shahzoda va malikalar obrazining badiiy talqinlari va kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashda epizodik personajlarning roli ochib berilgan;

ilgari surilgan fikr-mulohazalar ilmiy-nazariy tahlillar asosida istiqbol davri erkin, plyuralistik tafakkuri bergan imkonlar natijasida jahon romanchiligi yutuqlari milliy asosda ijodiy o'zlashtirilishi, bir asrlik tajriba to'plagan o'zbek tarixiy romanchiligi va romanij tafakkuri tadrijiy rivoji hamda Muhammad Ali ijodining ichki tadriji, poetik mahorati tufayli o'zbek adabiyotida ilk roman-tetralogiya modeli yaratilgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: quyidagilardan iborat:

Roman janriy shakllari genetik ildizlari, taraqqiyot tamoyillari roman-tetralogiya milliy modelining yuzaga kelish omillari aniqlanib, tarixiy-qiyosiy va qiyosiy tipologik yo'sinda qiyoslangan hamda yetakchi belgi-sifatlari ochib berilgan;

Amir Temur davri va shaxsiyati mavzusidagi mavjud tadqiqotlar va ulardan ilhomlanib yozilgan badiiy asarlar keng tadqiq etilib, milliy tarixshunosligimiz va badiiy nasrimizning Yevropa temurshunosligi bilan uyg'un va farqli jihatdari ko'rsatilgan. O'zbek nasrida ilk roman-tetralogiya yuzaga kelishining omillari aniqlanib, M.Alining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi o'rganilgan tadqiqotlar tasnif va tahlil qilingan. Asarda Sohibqiron Amir Temur obrazi va uning jahon tarixidagi o'rni obyektiv yoritilganiga doir nazariy xulosalar ishlab chiqilgan;

"Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasida muallif obrazi va ijodiy konsepsiyasi aniqlangan va adib badiiy-estetik olami bilan chog'ishtirilgan. Roman-tetralogiya tayanch manbalari bilan tarixiy-qiyosiy aspektda tahlil va tadqiq etilgan. M.Ali badiiy-estetik olami, badiiy asar biografiyasi va yozuvchining ijod laboratoriyasi dalillangan;

tetralogiya obrazlar sistemasi va personajlar ierarxiyasi, roman-tetralogiya temuriy shahzodalar va malikalar obrazining badiiy talqinlari, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashda epizodik personajlar roli tahlilga tortilgan. Ilgari surilgan fikr-mulohazalar ilmiy-nazariy tahlillar asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlarni berishda ishonchli ilmiy manbalarga tayanilgani, qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalar amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, qardosh xalqlar hamda dunyo adabiyotshunosligi yangi yo'nalishlari va tahliliy usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek nasrida roman-tetralogiya muammosi kompleks tadqiqiga doir nazariy umumlashmalar, milliy adabiyotda ilk roman-tetralogiya yuzaga kelishini dalillashga asos bo'ladigan badiiy-yestetik qonuniyatlar hamda poetik xususiyatlarni aniqlashga xizmat qilishi ishning ilmiy-nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati roman janriy shakllarini milliy-adabiy an'ana, qardosh va jahon xalqlari tarixiy romanchiligi bilan uyg'unlikda, o'ziga xoslik va badiiy mahorat nuqtayi nazaridan o'rganishda, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylarda tarixiy romanchilik va roman-tetralogiya bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, maxsus kurs va seminarlar

olib borishda, “Ulug‘ saltanat” asari va roman-tetralogiya muammolariga doir darslik, o‘quv qo‘llanmalari va majmualar tuzishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek nasrida roman-tetralogiya (Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida) mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida: roman janriy shakllarining genetik ildizlari va taraqqiyot tamoyillari, Sohibqiron Amir Temur obrazining badiiy tahlil va talqinlariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida f.f.d. professor Sh.S.Sirojiddinov rahbarligida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 24.09.24-yildagi 04/1-2698-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek nasrida roman janriy shakllarining genetik ildizlari va taraqqiyot tamoyillari, ilk roman-tetralogiyaning yuzaga kelish omillarini o‘rganish asosida tarixiy fenomenal shaxs obrazini yaxlit tizim sifatida tadqiq etishga erishilgan;

Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazining 2022-2023-yillar uchun mo‘ljallangan O‘A-22-23 raqamli “O‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari” mavzuidagi fundamental loyihasida O‘zbek nasrida roman-tetralogiya (Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida) mavzusidagi dissertatsion tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar: roman-tetralogiyaning janriy xususiyatlari, epik ko‘lamdorligi, obrazlar olami, adabiy an‘ana, ijodiy o‘ziga xoslik, poetik mahorat masalalari bilan bog‘liq xulosalaridan foydalanilgan. (Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekistondagi Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazining 13.09.22-yildagi 39/UZB raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari haqidagi tadqiqotlarning yangi nazariy ma‘lumotlar hisobiga yanada boyitilishiga erishilgan.

Roman-tetralogiyada dialektik determinizmning yetakchi mavqeda turishi, asar badiiy voqeligi poetik talqin imkoniyatlarini kengaytirgani, xarakterlar tasviri va poetik ifoda rakurslari turfaligi roman-tetralogiyaning muhim yutug‘i ekani bilan bog‘liq ilmiy qarashlar va nazariy ma‘lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258. “O‘zbekiston adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 19.02.09.24-yildagi 04/1-415-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston adabiyotining ko‘p tilli elektron platformasini adabiyotshunoslik janrlarining genezisi, taraqqiyot tamoyillari, istiqlol davridagi rivoji haqidagi yangi ilmiy-nazariy ma‘lumotlar hisobiga yanada boyitishga erishilgan.

O‘zbek nasrida roman-tetralogiya (Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida) mavzusidagi dissertatsion tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar, xususan, muallif obrazi va ijodiy konsepsiyasi, “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida obrazlar sistemasi va personajlar ierarxiyasi masalalari bilan bog‘liq xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston”

teleradiokanali“ davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanali ijodkorlari “Bir asar tarixi” va “Qismat” ko‘rsatuvlari ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan. (“O‘zbekiston” teleradiokanali“ davlat muassasasining 9.10.24-yildagi 01-44-287-son ma‘lumotnomasi) Natijada ssenariylar mazmunan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta, shu jumladan, bitta monografiya hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, shundan 5 tasi nufuzli xorijy nashrlarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, uning umumiy hajmi 232 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning ilk bobi **“Roman-tetralogiyaning genetik ildizlari va taraqqiyot tamoyillari”** deb nomlanadi va ikkita paragrafni o‘z ichiga oladi. Ushbu bobning **“Sharq va G‘arb nasrida roman-tetralogiya”** nomli ilk paragrafida yapon, xitoy, rus va jahon adabiyotidagi roman- tetralogiya hamda ularning tarixiy-adabiy asoslari, mushtarak va o‘ziga xos belgi-sifatlar, poetik mushohada obyekti, adabiyotshunoslikdagi talqinlari haqida fikr-mulohaza yuritildi.

Tetralogiya termini yunoncha (tetra – to‘rt, logos – so‘z) dan kelib chiqqan bo‘lib, genetik jihatdan badiiy ijod ahli o‘zaro bellashgan qadimgi teatr borib taqaladi. Zotan, antik adabiyotda tetralogiya uchta tragediya va bitta satirik dramadan tarkib topgan yaxlit dramatik asarning nomi edi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda bu termin bir muallifning to‘rtta mustaqil asaridan tarkib topgan, syujet rivoji va muallif konsepsiyasi asosida yagona bir butunga birlashgan, umumiy g‘oyaviy mazmun va xarakterlar birligi negizida chambarchas bog‘langan yirik epik asariga nisbatan qo‘llanmoqda²⁷.

²⁷ Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред А.Н. Николюкина – Интервак, 2001 – Стб. С. 1074-1596.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, roman-tetralogiya ko'p qatlamli adabiy-badiiy ifodaning o'ziga xos shakli²⁸ bo'lib, quyidagi umumiy belgi-sifatlar bilan ajralib turadi: 1.Qismlar soni. 2. Syujet umumiyliigi. 3.Belgilar birligi. 4. Ma'furaviy-badiiy konsepsiya umumiyliigi. 5. Hissiy, fikriy rivojlanish.

Tetralogiya – bu romanning tashqi ko'rinishi (shakli). Yozuvchi shu shakl orqali muayyan mazmun (mohiyat)ni ifoda etgan. Chunki, dialektik jihatdan bir-birini taqozo etuvchi, bir-biriga ta'sir etuvchi, bir-biriga o'tuvchi ammo shartli ravishdagina ajratib qaraladigan shakl va mazmun kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, ular yaxlit bir narsaning vaqt birligida namoyon bo'luvchi ikki qanotidir. Mazmun muayyan shaklning mag'zi bo'lgani uchun, uni hosil qilishda faollik ko'rsatadi va shaklning ichida yashaydi. Shu bois, shaklsiz mazmun va mazmunsiz shakl bo'lmaydi, degan nazariy qoida shakllangan.

Roman-tetralogiya tarixiylik tamoyili asosida yoziladi. Chunki, tarixiy haqiqat olis va yaqin tarixda sodir bo'lgan muayyan voqea-hodisaning obyektiv va subyektiv tomonlarini e'tiborga olgan holda, qachon va qanday shart-sharoitlar negizida yuz berganini ilmiy manbalar asosida aniq aks ettirgan bilimdir. Bu mezonning buzilishi biryoqlama va noxolis ilmiy talqinlarni yuzaga chiqaradi²⁹. Masalan, sho'rolar davrida amalda bo'lgan tarixiy materializmning jamiyatni formatsiyalarga ajratib izohlash tamoyiliga ko'ra sinfiylik, ijtimoiy tabaqalanish, jamiyatning to'narish orqali o'zgartirilishi qonuniy hodisa ekani zo'rma-zo'raki tarzda uqtirib kelindi. Jamiyating evolyutsion rivojlanishi noto'g'ri talqin qilindi. Afsuski, bu hol sho'rolar davrida yaratilgan badiiy adabiyot, xususan, tarixiy roman janri va uning roman-tetralogiya shaklida ham, ular haqida amalga oshirilgan tadqiqotlarni ham chetlab o'tmadi.

Tetralogiyada manbalarni tarixshunoslikning etnografiya, arxeologiya sohalari kabi ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanish jarayonlarini aniqlash uchun ilmiy tahlil va tadqiq qilmaydi. Chunki, unda tarixiy davr manzarasi muallif badiiy konsepsiyasi asosida shakllantiriladi. Tarixiy shaxslar obrazining fikr-tuyg'ulari badiiy to'qima asosida ham tasvirlanadi. Davr tarixiy koloriti, odamning qismati va olamga munosabati badiiylik asosida ishonarli tarzda ko'rsatiladi. Kitobxonda o'z ota-bobolari shonli o'tmishidan g'ururlanish, ulug'vor shaxslarga ehtirom tuyg'usini yuksaltirish, ibratlanish va o'z zamonasiga yangicha nigoh bilan boqish hissini, ma'naviy-estetik didni tarbiyalash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Badiiy asardagi tarixiylik spesifik tamoyillarga ega bo'lgani uchun, rus va jahon adabiyotida roman-tetralogiya janrida yuzaga kelgan va rus tilida chop etilgan tetralogiyalar,³⁰ shuningdek, V.Skott, J.Golsuorsi, L.N.Tolstoy, M.Sholoxov,

²⁸ Литературный энциклопедический словарь . / Под общ. ред. В. М. Кожевникова, П. А. Николаева – Москва: “Советская энциклопедия” 1987. – С. 439; Литературная энциклопедия терминов и понятий. / Гл редактор и составитель А.Н. Николюкин. – Москва НПК «Интелвак» 2001 – С. 1074; Боров Ю.Б. Эстетика. Теория литературы. Энциклопедический словарь терминов – М.: 2003; Его же: Эстетика: Отношение к действительности; Творчество; Произведения; Природа и виды искусства; Художественный процесс; Обращение с искусством – М.: 2005.

²⁹ Фалсафа қомусий луғат. “Шарқ”Б НМАК Бош таҳририяти. – Т.: 2004. – Б. 389.

³⁰ Абрамов Фёдор “Братья и сестры” – Изд. Азбука, 2017; Эриа Филлип. “Тетралогия о Буссарделях”. (Комплект из 2 книг). – Изд. Славянка. 1994; Бородин Сергей., Дьячков-Тарасов Александр. “Звёзды над

M.Avezov, J.Sharipov M.Ali kabi turli avlodga mansub yozuvchilar o'z badiiy niyatiga bog'liq tarzda, badiiy to'qimaga ham yetarli haq berishgan.

Tadqiqotda "Shahzoda Gendzi-monogatari" (Murasaki Shikibu, XI asr), "Uch qirollik" (Lo Guan-chjun, XIV asr) kabi yapon va xitoy nasrida yuzaga kelgan klassik epik asarlar,³¹ shuningdek, "Urush va tinchlik" (L.N.Tolstoy), "Tinch Don" (M.Sholoxov), "Petr I" (A.N.Tolstoy)³² asarlari tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik aspektda keng tahlilga tortilgan. Sho'ro davri adabiyotshunosligi roman-tetralogiya sifatida targ'ib qilgan N.Garin³³, B.Zaysev³⁴, M.Aldanov³⁵, V.Kataev, Y.Bondarev asarlari dialog va psixologik tahlil teranligi, ijtimoiy tarixning burilish nuqtasida yashagan shaxs hayotining ma'nosi, taqdir dramalari va o'lim masalalari badiiy tadqiq etilgan bo'lsa-da, janr talablariga to'la javob bera olmasligi dadillangan. Epik qurilish belgilariga ega, asosiy qahramonlari ko'lamli real voqealar fonida tasvirlangan har qanday yirik asar roman-tetralogiya bo'lolmasligi ilmiy asoslangan. Jahon adabiyotida yaratilgan ko'plab asarlarning ilg'or yutuqlarigina zamonaviy milliy roman-tetralogiyalar uchun muayyan asos bo'la olishi isbotlangan. M.Alining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi shu nazariy asoslarga tayangan holda tahlil va tadqiq etilgan.

Bobning "*Milliy romaniy tafakkur va roman-tetralogiya modeli*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida XX asr qozoq nasrida roman-tetralogiya modeli mavjud bo'lgani, o'zbek tarixiy romanchiligida bunday izlanishlar kuzatilgani, mustaqillik davridagi milliy romaniy tafakkur va o'zbek nasrida ilk roman-tetralogiya modelining yuzaga kelish omillari M.Avezov, J.Sharipov, B.Axmedov, M.Ali, T.Hayit asarlari misolida tahlil va tadqiq etilgan.

Qozoq adibi, akademik Muxtor Avezovning "Abay yo'li"³⁶ roman-tetralogiyasida ma'rifatparvar shoir Abay Qo'nonboev hayoti misolida Markaziy Osiyo adabiyotida birinchilardan bo'lib umr bo'yi ko'chmanchilik bilan

Самаркандом" (Комплект из 2 книг). – Изд. Дрофа. 1994; Слепухин Юрий. "Перекресток". – Изд. Советский писатель. Ленинградское отделение. 1962; Гарин-Михайловский Николай. "Детство Тёмы" – Изд. Азбука. 2019; Новицкая Вера. "Безмятежные годы". (сборник). – Изд. Энас-книга. 2011; Симмонс Дэн. "Гиперион". – Изд. АСТ. 2018; Собрание сочинений в 11 томах. Том. 4. "Путешествие Глеба" (сборник). – Изд. Русская книга. 1999; Мир-Хайдаров Раул. "Пешие прогулки". – Изд. Молодая гвардия. 1988; Волос Андрей. "Победитель". – Изд. Эксмо. 2016; Краули Джон. "Египет". – Изд. Эксмо, Домино. 2016; Дюма Александр. "Жозеф Балзамо" – Изд. Альфа книга. 2010; Фарранте Елена. "Моя гениальная подруга". – Изд. Синдбад. 2016; Голдинг Джулия. "Тайны сирен". – Изд. Росмен-Пресс.2009; Малик. Владимир "Тайный посол" (сборник) – Изд. Ленинградское изд-во. 2011.

³¹ Библиотека всемирной литературы. Том XVI. Классическая поэзия Индии, Китая, Кореи, Вьетнама, Японии // – М.:Художественная Литература – 1977 – С. 944; Никитина М.И. Древняя Корейская поэзия в связи с ритуалом и мифом // – М: Изд-во "Наука" – 1982. – С. 328; Корейская поэзия XVI-XIX вв. в жанре сиджо: (Семантическая структура жанра. Образ. Пространство. Время). – СПб.: Центр «Петербургское Востоковедение», 1994. – С. 312; Корнеева И.В. Представления об образовании и учености в корейской литературе периода Чосон: 1392-1910. Автореф. дис. ...кан. фил. наук. – М.,2009; Троцевич А.Ф. История Корейской традиционной литературы (до XX в.) // – СПб: Изд-во С.-Петерб. ун-та – 2004. – С. 323.

³² Толстой А.Н. Петр I. Том 1, – Изд. Проспект, 2023.

³³ Гарин-Михайловский Н. Г. Собрание сочинений: в 5 томах. Том 1: Детство Тёмы. Гимназисты. – М.: Гос издат худ-ной литературы, 1957. – С. 522; Его же: Собрание сочинений: в 5 томах. Том 2: Студенты. Инженеры. – М.: Госиздат худ-ной литературы, 1957. – С. 563 .

³⁴ Зайцев Б. Собрание сочинений в пяти томах (одиннадцати книгах). – М.: Русская книга, 1999 –2001.

³⁵ Алданов М.А. Мыслитель. Альфа-книга, 2020.

³⁶ Ауэзов М. Путь Абая.и в двух томах. Том 1. 662 стр; <https://dn790005.ca.archive.org/>; Его же. Путь Абая.и в двух томах. Том 2. 644 стр. <https://ia803105.us.archive.org/> В формате PDF.

shugʻullanib kelgan, endilikda “yangi hayot” (Bu yerda xonlik zulmidan qutilish nazarda tutilgan. G.Q.) ostonasiga qadam qoʻyayotgan qozoq xalqining ijtimoiy-madaniy va maʼrifiy-axloqiy mammolarga toʻla yarim asrlik hayot tarzi keng qamrovli tarzda badiiy aks ettirildi.

Asarda oʻrni bilan zamonaviy realistik romanchilikning psixologik roman, oilaviy-maishiy roman, ijtimoiy-falsafiy roman singari janriy shakllariga xos belgi-sifatlaridan foydalanildi. Muayyan janr shakli ajratilar ekan, dastavval uning yetakchi belgisi aniqlab olinishi zarur³⁷. Jumladan, “Abay yoʻli” tetralogiyasida janrning tarixiy-biografiklik xususiyati dominantlik qiladi. Adib mutafakkir shoir obrazini quyidagi yoʻsinlardan tasvirlaydi: a) koʻngli nozik va ojiz oʻsmir; b) qalbi goʻzal talpinishlar ogʻushidagi oshiq yigit; c) otasi bilan murosa-madora yoʻlini izlagan, ayni chogʻda, undan farqli oʻlaroq, xalq uchun najot manbaini ilm-maʼrifatda koʻrgan farzand; d) mehribon oila boshligʻi; e) xiyonat va aldovlar iskanjasida oʻrtangan, oʻz yaqinlaridan ajralib chuqur qaygʻuga botgan inson; f) yoshlarning ustoz-murabbiysi; g) xalqning eng yaqin dardkash doʻsti; i) faol kurashchi shoir.

“Abay yoʻli” tarixiy-biografik roman tetralogiyasining nafaqat XX asr qozoq adabiyoti, balki jahon realistik nasrida ham oʻziga xos eʼtibor va eʼtirofga sazovor boʻlishida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

a) M.Avezovning roman yozilguncha boʻlgan davrda realistik nasrda oʻz qalamini charxlashi. Jumladan: “Qarash-qarash”, “Burgutli ovchi”, “Izlar”, “Yelkama-yelka” singari asarlarini yozish jarayonida toʻplagan ijodiy tajribalari hamda “Abay” dramasi yuzaga kelishi. Yozuvchining ushbu xayrli ishga katta tayyorgarlik, milliy gʻurur va ishtiyoq bilan qoʻl urishi.

b). M.Avezov tarixiy faktlarning kamligi bilan roʻbaroʻ kelgach, Abay haqida qozoq xalqi orasida tarqalgan rivoyat va hayotiy hikoyalarni yigʻishi hamda oʻz badiiy niyatiga mos tarzda saralashi.

c). Shoirning sheʼr, qoʻshiq (oʻlan)larini xalq ogʻzidan yozib olishi va tasniflashi.

d). Abay haqida ilmiy-tanqidiy maqolalar yozishi.

e) Ulugʻ mutafakkirning otasi (Qoʻnonboy), onasi (Uljon), Abayning oʻgay onalari, yaʼni otasining boshqa xotinlari (Dilda, Oykarim, Nurxonim) buvisi (Zuhra), akasi (Takejon), doʻsti (Erboʻl), Abayga zamondosh qozoq shoirlari (Koʻkpay, Avaz) kabi real tarixiy shaxslar hayotini atroflicha oʻrganishi. Ayrimlari bilan bevosita suhbatlashish orqali Abay hayotining noaniq qirralariga oydinlik kiritishi. Aksariyatini badiiy obraz sifatida asarga olib kirishi.

f) Abay badiiy asarlarida koʻtarilgan poetik gʻoyalarga asosiy manba sifatida tayanib ish koʻrishi.

Demak, yozuvchi deyarlik tarixiy manbalar mavjud boʻlmagan mavzuga qoʻl urib, tarixiy faktlarni qayta tiklash va ularga badiiy libos kiydirish yoʻlidan bordi. Shubhasiz, bu hol muammoga ham tadqiqotchi olim, ham yozuvchi sifatida

³⁷ Бахтин М.М. Эпос и роман (о методологии исследования романа) // Бахтин М.М. Эпос и роман. – СПб.: Издательство «Азбука», 2000. – С. 194-95.

yondashishni talab qilgan. Binobarin, roman-tetralogiya badiiy asar bo'lishiga qaramasdan, unda keltirilgan faktologik ma'lumotlar qozoq xalqi tarixi va etnografiyasi haqida keng tasavvurlar berishi ma'nosida, muayyan ilmiy qimmat ham kasb etadi³⁸.

“Xorazm”³⁹ roman-tetralogiyasida (Jumaniyoz Sharipov) Isfandiyorxon hukmronligi davri, ya'ni 1910-1918-yillar, shuningdek, xorazmliklarning “fuqarolik urushi” davridagi mashaqqatli hayoti hamda o'lkada sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishi voqealari tasvirlandi. Muallif bu roman uchun material yig'ish va uni yozishga qariyb o'ttiz yillik umrini sarfladi. Ammo, J.Sharipov tayangan adabiy-metodologik qarashlar endilikda eskirganligi bois, yozuvchining yaqin o'tmishni asosan, qora ranglarda ko'rish, sho'rolar siyosatini yagona najot manbai deb bilish bilan bog'liq badiiy-estetik konsepsiyasi ham o'z ahamiyatini yo'qotdi.

O'zbek badiiy nasrida Amir Temur obrazini aks ettirgan badiiy asarlar anchagina. Ular sirasiga akademik Bo'riboy Ahmedovning “Amir Temur” roman-tadqiqoti⁴⁰, Muhammad Alining “Sarbadorlar” romani, “Ulug' saltanat” roman-tetralogiyasi, Nurali Qobulning “Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich”, To'liqin Hayitning “Vafo malikasi” romanlarini kiritish mumkin.

Bo'riboy Axmedovning “Amir Temur” romani tarixiy faktik va etnografik materiallarga boy asardir. Ayni paytda, bu roman bayonchilik kuchli, badiiyat zaif ekani jihatidan birqadar oqsaydi. Roman uch qismdan iborat. Asar salmoqli So'ngso'z, Amir Temur hayoti va ijtimoiy faoliyati solnomasi hamda izohlar bilan ta'minlangan. Tarixiy shaxslar va ijtimoiy ahamiyatga molik hodisalar ilmiy-badiiy tadqiq qilingani, tarixiy bayon va faktologiya kuchliligi bizga uning janrini shartli ravishda “roman-tadqiqot” tarzida belgilash imkonini beradi. Zotan, jahonda romanning shunday shakli ham mavjud⁴¹.

Nurali Qobulning “Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich”⁴² romanida Amir Temurning 14 yoshligidan to To'xtamishxonga ko'mak berib, butun Jo'ji ulusi yakka hokimiga aylantirishigacha bo'lgan davr (1350-1379) voqealari imkon qadar qamrab olingan. Yozuvchi an'anaviy rivoyat usulini qo'llagani holda, ba'zan tarixiy rivoyatlarni roman matniga singdirish, tush va xotiralardan foydalanishga ham muvaffaq bo'lgan.

To'liqin Hayitning “Vafo malikasi”⁴³ romanida Amir Temur hayoti va faoliyatining 1355-1370-yillariga doir voqealar qamrab olingan. Ma'lumki, bu yillarda Amir Temur siyosiy maydonga endigina chiqqan, Ulug' Amir darajasiga

³⁸ Ахмедов З. Олеч сөздің теориясы, — Алматы., 1973; Шу муаллиф: Абайдың акындық әлемі, —Алматы., 1995; Болатова Г.Ж. Анализ поэтики эпопеи «Путь Абая»: учебное пособие. — Алматы: Қазақ университеті, 2020. — С.137.

³⁹ Шарипов Ж. Хоразм. Роман-тетралогия. 1-китоб.1960; 2-китоб. 1970; 3-китоб 1974; 4-китоб 1976. — Т.: Бадий адабиёт нашриёти; Шарипов Дж. Хорезм. Роман-тетралогия .1-3 кн. — М.: 1968-1976.

⁴⁰ Ахмедов Б. Амир Темур. Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. —Т.: 1995. — Б. 640.

⁴¹ Дружников Ю.И. Узник России. По следам неизвестного Пушкина. Роман-исследование. Трилогия. — М.: Голос-пресс, 2003; Новиков В. Филологический роман. Старый новый жанр на исходе столетия // Новый мир. — 1999. — № 10

⁴² Қобул Н. Буюк Турон амири ёхуд ақл ва қилич. —Т.: 2011. — Б. 480.

⁴³ Ҳайит Т. Вафо маликаси. Янги аср авлоди. —Т.: 2005. — Б. 216.

ko'tarilish uchun mustahkam zamin hozirlayotgan edi. Romanning nomlanishi uning vafodor turmush o'rtog'i – jangovor ayol O'ljoy Turkon og'a obrazi bilan bog'liq. Zotan, asarda bu juftlikning mashaqqatli damlardagi bardoshi, baxtli lahzalardagi quvonchi, o'zaro samimiy va insoniy mehr-muhabbatlari qalamga olingan. Demak, bu asarlarning hech biri janrning roman-tetralogiya shakliga da'vo qilmaydi.

Bobda "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi romanga xos milliy tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti hosilasi ekani keng tahlilga tortilgan. Shuningdek, roman-tetralogiya shakli ham janrlar modifikatsiyasidan butkul chetda qolmagani ko'rsatilgan.⁴⁴ Asar arxitektonikasi hikoyat, rivoyat, latifa, maktub, ertak, doston kabi milliy folklor va yozma adabiyot janrlariga xos syujet, kompozitsiya va badiiy ifoda unsurlari hisobiga boyigani dalillangan. Zotan, ushbu roman-tetralogiya ularni o'ziga singdirib – "hazm" qilib yuborgan. Ayni paytda, drama, lirika, esse janrlariga xos bayon usullarini qo'llash, tarixiy-memuarlardan olingan ayrim parchalar, falsafiy-axloqiy risolalardagi fikr-mulohazalarni kiritish, epistolyar janr imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga janr tabiatida ichki kengayish – neosintetikklik sodir bo'lgan. Ifoda tarzida esa, assotsiativlik va liro-romantiklik tomon muayyan siljish yuzaga kelgan.

Anglashiladiki, roman-tetralogiyaning vazifasi nafaqat tarixiy-adabiy qahramonning muayyan sharoitdagi o'zgarishini ko'rsatish, balki ma'lum bir tarixiy voqea, butun bir davr yoki xalq taqdiridagi burilish davrining keng ko'lamli tasvirini berishdan ham iboratdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Roman-tetralogiya muallif obrazi va ijodiy konsepsiyasi"** deb nomlangan bo'lib ikkita paragrafni o'z ichiga oladi. Ushbu bobning birinchi paragrafi **"Ulug' saltanat" va muallif badiiy-estetik olami** deb nomlangan. M.Alining 1956-1966-yillar davomidagi hayoti, kuzatish va intilishlari aks etgan kundaliklari hamda "Ulug' saltanat"ni yozishda izlanishlarim. (Tajriba o'rnida)"⁴⁵ maqolasidagi e'tiroflariga tayangan holda roman-tetralogiyaning ijodiy niyatda kurtak sifatida paydo bo'lishidan tortib, yozuvchi ijodi ichki tadriji natijasida takomillashib borishi, yozilish jarayoni hamda muallif ijod laboratoriyasi o'rganilgan. Jumladan, adib kundaliklarida: *Birinchidan*, Muhammad Alining orzu-armonlari va hayotiy mo'ljallari aks etgan. *Ikkinchidan*, shoir badiiy ijod jarayoni boshlanishi, mavzular doirasi kengayib, janrlar tarkibi turfalashib, mahorati yuksalib borgani o'z ifodasini topgan. *Uchinchidan*, yozuvchining adabiy-estetik qarashlari aks etgan. *To'rtinchidan*,

⁴⁴ Преображенская Л.И. Ситуация кризиса границы и перестройка композиционной структуры в романе-антиромане Р.Л.Стивенсона «Мастер Баллантрэ» // Мировая литература в контексте культуры, под редакцией проф. Н.С.Бочкаревой. – Пермь: 2006. – С. 146; Балибулов Э.А. Художественно-философский неосинкретизм в русской литературе начала XX века. – Автореф. дисс.докт.филол.наук. – Новосибирск: 2006. – С. 7; Пестерев В.А. Модификации романной формы в прозе Запада второй половины XX столетия. – Волгоград: 1999. – С. 159; Гайжынас С.В. Роман воспитания (динамика жанровой структуры). – Вильнюс: 1984. – С. 16.; Днепров В.Д. Идеи и времени и формы времени. – М.: 1977. – С. 419; Гулиус Н.С. Художественная мистификация как прием текстопорождения в русской прозе 1980 – 1990-х гг. (А.Битов, М.Харитонов, Ю.Буйда). – Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Томск: 2006. – С. 6.

⁴⁵ Мухаммад Али. "Улуғ салтанат"ни ёзишда изланишларим. (Тажриба ўрнида") / Ижод фалсафаси. Тўпловчи ва таржимон Ҳумоюн. – Т.: Global books. 2021. (Иқтибослар шу манбадан олинди. Г.Қ.)

adabiyot va san'at asarlaridan tuygan hayratlari ifodalangan. *Beshinchidan*, Muhammad Ali: a) Sharq shoiru olimlari hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishgani; b) Yunon-Rim afsonalaridan tortib, jahon estetlari, shoiru adiblari asarlarigacha alohida qiziqish bilan mutolaa qilgani; c) o'rni bilan ularga muayyan munosabat bildirgani va ijobiy jihatlarini ijodiy o'zlashtirgani aks etgan.

Anglashiladiki, kundaliklar bizga uning o'n to'rt-yigirma besh yoshlik davriga oid qiziqishlari, o'qib-o'rganish va izlanishlari, ilk ijodi hamda ijodining keyingi bosqichlari uchun nazariy asos vazifasini o'tagan konseptual qarashlarining shakllanish va qat'iylashish jarayonlari haqida xabar beradi. Bu esa, adib estetikasida Vatan mavzusi, uning tarixi, azaliy qadriyatlari, ulug'vor siymolari, bunyodkor xalqi haqida asarlar bitish fikri takomillashib borganini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyada M.Alining ““Ulug' saltanat”ni yozishda izlanishlarim. (Tajriba o'rnida)” maqolasi keng tahlilga tortilgan. U muallif badiiy-estetik olamini o'rganishda biz uchun muhim manba vazifasini o'tagan. Ta'kidlash o'rinliki, “Ulug' saltanat” roman-tetralogiyasini bitish uchun M.Ali o'zining yozuvchilik iqtidori bilan bir qatorda, tadqiqotchi-olimlik salohiyatini ham to'liq ishga solgan. Bu jihat ushbu asar badiiy voqeligiga jalb qilingan tarixiy o'tmishning ongli va aniq hisob-kitoblar asosida, sinchkovlik bilan (adibning ta'biri bilan aytganda, pedantlarcha) o'rganilganida yaqqol bo'y ko'rsatadi. Jumladan, u Amir Temur va temuriylar davri haqida o'rta asr mualliflari yaratgan mohiyatan va xarakteriga ko'ra ikki xil guruhga mansub asarlarga murojaat etgan:

O'z davri rasmiy tarixnavislik an'analarga rioya qilib yozilgan solnomalar. Arab, ispan, fransuz, rus kabi turli mamlakatlar vakillari bo'lgan muarrixlarning asarlari. Mavjud materiallarning barchasi milliy tarixnavislik hamda shu mavzuda tarixiy tetralogiya yozgan Muhammad Ali uchun bir xil ahamiyat kasb etmasdi. Shuning uchun ham, yozuvchi ularni o'z ijodiy niyatiga mos tarzda saralashda ancha zahmat chekkan. “*Rus, Yevropa, Amerika olimlarining kitoblari ko'p holda “sho'rvaning sho'rvasi” bo'ladi*”⁴⁶, degan qat'iy xulosaga kelgan. Bobning **“Birinci o'zbek tarixiy tetralogiyasining tayanch manbaalari”** nomli ikkinchi paragrafida Muhammad Ali “Ulug' saltanat” tetralogiyasini yozishda tayanch manbaa vazifasini o'tagan quyidagi yettita tarixiy-adabiy asar roman voqeligi bilan chambarchas bog'liqlikda tahlil etilgan. Ular: 1. “Temur tuzuklari”, 2. G'iyosiddin Alining “Hindiston g'azovoti kundaligi”⁴⁷, 3. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, 4. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”,⁴⁸ 5. Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)”⁴⁹, 6.

⁴⁶ Мухаммад Али. “Улуғ салтанат”ни ёзишда изланишларим. (Тажриба ўрнида”) / Ижод фалсафаси. Тўпловчи ва таржимон Ҳумоюн. – Т.: Global books. 2021. – Б.66.

⁴⁷ Гиёсиддин Али. Рўзнома-йе ғазавоте Ҳиндистон. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 1520 / П; Гиёсиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. Перевод с персидского А. Семёнова. – М.: Изд-ва восточной литературы, 1958.

⁴⁸ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Таржимон: Бўриев Омонулло. – Т.: “Камалак”, 1994. – Б 288.

⁴⁹ Клавиho, Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406) // Пер. со староиспанского, предисл. и коммент. И.С. Мироковой; Отв. редакторы Г.Г. Берадзе, К. К. Куция. – М.: Наука, Главная редакция восточной литературы, 1990. – 216 с.

Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”⁵⁰, 7.Fasix Xavofiyning “Mujmali Fasixiy”⁵¹ asarlaridir. Ko‘rinadiki, adib davr voqeligi va tarixiy siymolar obrazining dunyo ahli bilgan va aksariyat asarlarda aks ettgan jihatlarini takrorlashni istamagan. Chunki, o‘z oldiga: mavjud asarlardagi badiiy talqinlarga mutlaqo o‘xshamaydigan “o‘z Amir Temuri” obrazini yaratish, unda Sohibqiron fenomeniga xos, betakror va go‘zal ma‘naviy-ruhiy dunyoni aks ettirish vazifasini qo‘ygan. Yuqoridagi nazariy fikrga ko‘ra, “Ulug‘ saltanat”da yozuvchi: *Birinchidan*, Amir Temur davri ijtimoiy-madaniy voqeligi va temuriyzodalar tarixiy shaxsiyatini emas, balki ulug‘ saltanat va uning fidoyi bunyodkorlari badiiy obrazlarini yaratgan. *Ikkinchidan*, tarixiy shaxslar obrazini olamshumul faoliyatlari jarayonida tasvirlamagan. Aksincha, Sharq-islom falsafasi, adabiy-estetik an‘analari ruhida kamol topgan kishilargina hissiy idrok etishi mumkin bo‘lgan, o‘z bobokalonlari, momolari qalbida kechgan tug‘yonlarni aks ettirgan. *Uchinchidan*, tetralogiyada tasvirlangan adabiy siymolar muayyan darajada umumlashma obraz xarakteriga ega. Zotan, roman-tetralogiyada nainki tarixiy shaxslar obrazi badiiy talqinlarida, balki, narsa-hodisalarga bo‘lgan munosabatda ham ayrimlikdan umumiylikka o‘tish jarayoni yuzaga chiqqan. E’tiborli jihati shundaki, adib har qanday holatda ham, tasvir ishonchliligi va ifoda xolisligini ta’minlashga erishgan. Shunga asoslanib, bemalol aytish mumkinki, roman-tetralogiyadagi badiiy konseptul fikr-qarashlar poetik ifodasida tarixiy determinizmga xos yetakchi tamoyillar dominantlik qiladi. Tadqiqotning uchinchi bobi **“Amir Temur obrazining adabiy-badiiy tahlil va talqinlari”** deb nomangan bo‘lib, u ikki paragrafdan tarkib topgan. **“Amir Temur shaxsi: jahon tarixidagi o‘rni va adabiy-badiiy talqinlari”** nomli birinchi paragrafda xorijda va mamlakatimizda chop etilgan Sohibqiron shaxsiyati, tarixiy missiyasi talqinlariga oid tarixiy, ilmiy va adabiy-badiiy manbalar o‘rganilgan. Sobiq sho‘rolar davrida Amir Temur va u yashagan davrning madaniy hayoti haqida xolis munosabat bildirish, ilmiy va badiiy asarlar yozish mushkul edi. Milliy adabiyotlarda salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirish va roman-tetralogiya yaratishga imkon berilmasdi. Shunga qaramasdan, akademik Ibrohim Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”⁵² asari yuzaga keldi. Ammo, bunday xayrli ishlar uzoq davr to‘xtatib qo‘yildi. Xorijda yurtimiz tarixi, xususan, Sohibqiron Amir Temur shaxsiga qiziqish hamisha kuchli bo‘lgan. Istanbuldagi Sulton Boyazid kutubxonasida Amir Temur davri va shaxsiyati mavzusida yozilgan o‘ttizdan ortiq tarixiy, ilmiy va adabiy asarlar saqlanadi⁵³. Angliya, Fransiya, Germaniya va AQShning nufuzli kutubxonalarida Yevropa tarixshunosligi uchun

⁵⁰ Ибн Арабшох. Амир Темур тарихи. 1-китоб. – Т.: “Меҳнат” нашриёти, 1991. – Б.324; Ибн Арабшох. Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Т.: “Меҳнат” нашриёти, 1992. – Б.192;

⁵¹ Фасих Аҳмад Хавофий. Мужмали Фасихий. / Форс тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Д.Ю.Юсупова. – Т.: Фан, 2018. – Б. 133.

⁵² Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Иккинчи нашри. “Фан” нашриёти, – Т.: 1993. – Б. 56.

⁵³ Қаҳҳор Т. Амир Темур тўғрисида роман // “ЎзАС”. 19 август, 1997.

ham muhim ahamiyatga molik bir necha yuzlab asarlar mavjud⁵⁴. Temuriylar Davlat muzeyidagi Amir Temurga bag‘ishlab yozilgan asarlarning bibliografiyada 400 dan oshiq asar nomlari ingliz, rus, nemis va fransuz tillarida ko‘rsatilgan. Mamlakatimizda Sohibqironga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa turdagi asarlar, asosan, istiqldan keyin e‘lon qilindi. Tadqiqotda jahondagi tarixiy-adabiy manbalardan ilhomlanib yozilgan “Klavdiy Bombarnak” (Jyul Vern)⁵⁵, “Samarqand” (Amin Maaluf), “Amir Temur Ko‘ragoniy” (Mexmed Yilmaz), “Yeti iqlim sultoni” (Hilda Hukhem)⁵⁶ va boshqalarning badiiy asarlari tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik aspektda tahlilga tortildi.

O‘zbek nasrida ilk roman-tetralogiya istiqldan keyin yuzaga kelgan bo‘lsa-da, respublika va xalqaro miqyosda e‘tirof etildi. Darhaqiqat, “Ulug‘ saltanat” tarixiy roman-tetralogiyasi nainki mamlakatimiz aholisi, balki umurturkiy xalqlarda ham ushbu fazilatlarni kamol toptirishga xizmat qilmoqda: a) tarixdan to‘g‘ri saboqlar chiqarish va o‘zlikni anglash; b) qadriyatlarimizga hurmat, ulug‘vor tarixiy shaxslarga ehtirom tuyg‘usini yuksaltirish; c) milliy mustaqillik, tinchlik va barqarorlikni qadrlashga o‘rgatish va bunyodkorlikka da‘vat etish; d) milliy g‘ururni yuksaltirib, o‘z ajdodlariga munosib voris bo‘lishga ruhlantirish. Bularning barchasi, avvalambor, M.Ali ijodi, qolaversa, milliy tarixiy romanchiligimiz ham endilikda to‘g‘ri o‘zanda, izchil tadrijiy taraqqiyot jarayoni og‘ushida ekanini ko‘rsatadi.

“Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasini o‘rganish bo‘yicha mamlakatimizda salmoqli tadqiqotlar yuzaga kelgan bo‘lib, dissertatsiyada ular shartli ravishda quyidagicha tasnif qilib o‘rganilgan: 1. Gazeta va jurnal maqolalari⁵⁷. 2. Turli to‘plamlardagi maqolalar⁵⁸. 3. Muallif bilan o‘tkazilgan adabiy suhbat-muloqotlar⁵⁹.

⁵⁴ Мелвилл Чарльз. Беатрис Форбс Манц. Власть, политика и религия в Тимуридском Иране. // Зеркало. апрель 2010 г. 85(2): – С.429-430; Вудс Дж.Э. Генеалогия Тимура., Интеллектуальные исследования ислама., Очерки, написанные в честь Мартина Б. Диксона. – Ред. Мишель М.Маззауи и Вера Б.Морен – Издательство Университета Юты: Солт-Лейк-Сити, 1990. – С. 85-125; Его же. Династия Тимуридов. // Документы о Внутренней Азии № 14, Научно-исследовательский институт Внутренней Азии, Университет Индианы. – Блумингтон, 1990; Его же. Расцвет историографии Тимуридов. // Журнал Ближнего Востока Исследования 48 (1987). – М. 81-108; Гиббон Э. История упадка и разрушения Рим. Империи. Рус. пер. В. Н. Неведомского, – М.: 1997-2000; Амир Темур ва унинг дунё тарихида тутган ўрни. / Соҳибқирон Ачир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланган республика миқёсидаги илмий-назарий конференцияда қилинган маърузалар. – Т.: Фан, 1996 ва б.

⁵⁵ Жюль Верн. Клодиус Бомбарнак. Приключения троих русских и троих англичан в Южной Африке. Переводчики: Брандис Е., Брандис Н., Исакова В. Изд-во «Вечер», 2018.

⁵⁶ Хильда Хукхэм. Етти иқлим султони. Хужжатли-тарихий қисса. – Т.: “Адолат” нашриёти, 1999. – Б 320.

⁵⁷ Қодиров П. Шоир ёзган роман. // “ЎзАС” 24 октябрь, 2003 йил; Саидов А. Улуғ салтанат ва улуғвор аждодларимиз тараннум этилган асар. // “ЎзАС”, 9 январь, 2015 йил; Қосимов Б. Улуғ салтанат сирлари. // “Халқ сўзи”, 18 март, 2003 йил; Юсупов Ш. Олмос қирралар. // “Тошкент окшоми”. 17 мари, 2005 йил; Расулов А. Улуғ салтанатнинг шаклланиши. // “Жаҳон адабиёти”, 2003 йил, ноябрь, – Б. 136-138; Алимбеков А. Тарих жозибаси. // “ЎзАС”, 30 декабрь, 2005 йил. № 51-52; Уватов У. “Улуғ салтанат” тарихий эпопеясига бир назар. // “Гулистон” 2016, 2-сон; Жумахўжа Н. Эпопеянинг ilk романи. // “Китоб дунёси”, 8 апрель, 2015 йил; Ёкубов И. Изтиробли ва фарахбахш туйғулар мусаввири. // “Тамаддун нури”. 2016 йил, 1-сон; Ҳайдарова Р. Авлодлар зиммасидаги таъриф. // “Хуррият”, 12 январь, 2011 йил; Тўлқин Ҳайит. Соҳибқирон салтанатига сафар. // “Китоб дунёси”, 26 ноябрь, 2014 йил ва б.

⁵⁸ Мустақиллик даври адабиёти. Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, – Т., 2006. – Б. 288; Улуғ салтанат” васфи. “Mashhur Press”, – Т., 2017. – Б. 350; Замондошлар нигоҳида Муҳаммад Али. “Адабиёт” нашриёти, – Т.:

Bobning navbatdagi paragrafi *“Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining tarixiy-qiyosiy tadqiqi*” deb nomlangan bo‘lib, unda “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasiga yozilgan “So‘zboshi” va “So‘ngso‘z”larga diqqat qaratilgan. Masalan. M.Qo‘shjonov tahlillarida yozuvchi uslubi, dunyoqarashi, badiiy mahorati masalalari yoritildi. Olim Sohibqironning ulug‘vor shaxsiyati haqida tetralogiya yaratish nafaqat istiqbol bergan imkoniyat, balki hayot talabi ham ekaniga diqqat qaratdi. B.Nazarov “Ulug‘ saltanat”dagi roman-tetralogiya xos xarakterli belgi-sifatlarni aniqlab, asarning janrini belgilab berdi. Albatta, uning tahlillari pafosdan butkul xoli emas. Shuningdek, psixanalitik tahlilga urg‘u berilgan ayrim tahlil va talqinlarida bahstlab o‘rinlar ham kuzatiladi. I.Yoqubov, M.Hamroyeva, D.To‘rayev, A.Alimbekovlar qalamiga mansub monografiyalarda⁶⁰ “Ulug‘ saltanat”ning tarixiy romanchilikdagi o‘rni belgilandi. Liro-romantik uslubi haqida nazariy fikr-qarashlar ilgari surildi. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin nisbati aniqlanib, yozuvchi ijodini kompleks o‘rganishga intilish kuzatildi. Ishda tadqiqotchilar Z.Yaxshiyeva, O.Dadaboyev, L.Mardonova, E.Jumayev, A.Uzoqov, B.Ermatovlar tomonidan yozilgan dissertatsiyalarda⁶¹ a) adabiy-badiiy an‘ana, ijtimoiy-estetik ideal va shakliy-uslubiy o‘ziga xoslik; b) ijtimoiy muhit va tarixiy shaxs obrazining dialektik talqini; c) Amir Temur obrazi insoniy tabiatiga xos kechirimlilik, sabr-bardoshlilik, bag‘rikenglik fazilatlarini ifodalanishi; d) tarixiy shaxs siymosi dunyoqarashining ilohiy-irfoniy asoslari; e) bosh qahramon maqsad-intilishlarida Turkiston birligi masalasining badiiy talqinlari; f) tarixiy roman-tetralogiya badiiy to‘qimaning o‘rni kabi muammolar tadqiq etildi. Tadqiqotda ularda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, G‘arbiy Yevropa adiblari dunyoqarashi, mafkuraviy maqsadlari aks etgan asarlarni mualliflar ijodiy niyati, estetik idealidan kelib chiqib xolis baholay olmaslik, obrazlar tasvirida tarixiy

2022. – Б. 344; Ёкубов И. Мухаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. Монография. “Фан”, – Т.: 2007. – Б. 15; Ёўлдошев Қ. Абдураззоқов А. Бугуннинг одами тасвири. / Ёўлдошев Қ. Сўз ёлқини.. Ғафур Ғулум номидаги НМИУ. – Т.: 2018. – Б.357.

⁵⁹ Алимбеков А. Рўй-рост ёзиш ҳукуки. // “Шарқ юлдузи”. 2003 йил.4-сон, – Б.146-148; Шу муаллиф. Бадий тарих манзаралари. // “ЎЗАС”, 13 январь, 2006 йил, № 2; Солижонов Ё. Тарих, замон ва ёзувчи масъулияти. // “Шарқ юлдузи”, 2016 йил, № 7. – Б. 110-118; Солижонов Ё. Тарих, замон ва ёзувчи масъулияти / Солижонов Ё. Адабиёт хиббони. Мақолалар суҳбатлар. – Фарғона 2020. – Б. 210-224; Салим Ашур. Тарих – миллатнинг бўй-басти, ватаннинг жамоли. // “ЎЗАС” 25 февраль, 2022 йил; Қўлиева Г. Бадий ижод жараёни сирлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2022 йил, 3-сон. – Б.109-113.

⁶⁰ Ёкубов И. Мухаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. – Т.: Фан, 2007. – Б. 80; Ҳамроева М. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин. (Насрий асарларда Амир Темур образи). Монография. – Термиз: “Сурхон-Нашр”, 2019. – Б. 132; Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Т.: Oqituvchi, 2020; Тўраев Д. Ўзбек тетралогияси. – Т.: Akademnashr. 2017.

⁶¹ Яхшиева З.Р. Мухаммад Алининг “Улуғ салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг бадий ифодаси. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Қарши 2021. – Б. 142; Дадабоев. О. Ғарб ва Шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Т., 2019. – Б. 148; Мардонова Л. У. Мухаммад Алининг “Улуғ салтанат” роман-тетралогиясидаги образларнинг бадий поэтик талқини. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Қарши 2022. – Б. 137; Жумаев Э. Б. Мустақиллик даври ўзбек романларида Амир Темур образи талқинларининг қиёсий таҳлили (Мухаммад Али ва Нуралӣ Қобул романлари мисолида). – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Қарши 2023. – Б. 147; Эрматов Б. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар). – Филол. фанлари доктори дисс... – Т., 2019. – Б. 232; Узоқов А. Х. Ўзбек прозасида Амир Темур образининг гавдаланиш тамойиллари. – Филол. фанлари бўйича фалсафа док-ри (PhD) дисс... – Гулистон, 2023. – Б.136.

faktlarni yetarlicha inobatga olmaslik, muammoga kompleks yondashuv va bahs-munozara ruhining taqchilligi, biryozqlama xarakterdagi xulosalarni taqdim qilish singari kamchiliklari ham ko'rsatilgan.

Umuman, mavjud tadqiqotlarda "Ulug' saltanat" o'z betakror ruhi va mohiyatiga ega bo'lgan yangi tipdagi roman-tetralogiya sifatida baholangan. Bizningcha ham, ushbu asarda Amir Temur shaxsi va jahon tarixidagi o'rni xolis yoritilgan. Dunyo tarixshunosligidagi adabiy-badiiy talqinlar milliy manfaatlar nuqtai nazaridan badiiy-ijodiy sintez qilingan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Ulug' saltanat" tetralogiyasida obrazlar sistemasi va personajlar ierarxiyasi**" deb nomlangan bo'lib, to'rt paragrafni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi paragrafi "**Amir Temur – syujet halqalarini birlashtiruvchi obraz sifatida**" deb nomlangan bo'lib, unda "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasi syujetida Amir Temur obrazining badiiy-estetik vazifalari tadqiq etildi.

Adib Amir Temur obrazini yaratishda o'zbek, qozoq va jahon tarixiy romanchiligi an'analarga tayanib, ularni takrorlamagan holda, obrazning fenomenal mohiyatiga o'ziga xos yo'sinda yondashishga intildi. Muallif Amir Temur obrazini oilaviy muhitda tasvirlashga urg'u bersa-da, o'z davrining adolatli, bunyodkor siyosiy arbobi, harbiy sarkardasi, ulug' saltanatning asoschisi sifatida badiiy talqin qildi. Yozuvchi Sohibqironning to'rt nafar o'g'li: Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzolar nomini shartli ravishda kitoblar sarlavhasiga chiqardi. Bu kompozitsion qurilishning sabablarini izohlarkan, akademik B.Nazarov shunday deydi: "... bu to'rt ism – asar nomlari ma'nosida ulug' saltanatning bunyodkori Sohibqiron hayotining to'rt fasli Jahongir ishorasidagi – jahonni zabt etish taraddudlari; Umarshayx ishorasida – dini islom va amir-u shayxlarni o'ziga ustoz-u rahnamo deb bilish; Mironshohda – amirlik martabalarining mustahkam qaror topishi; va nihoyat, Shohrux Mirzoda esa yetti iqlim sultonining ruhiyat iqlimlariga ishora o'z ifodasini topgandek ham bo'ladi"⁶².

Darhaqiqat, Sohibqiron obrazining Xo'tandan to Misr va Egey dengizigacha, Moskvadan to Hindistongacha cho'zilgan turkiy davlatchilikning yuksak cho'qqisi bo'lgan ulug' saltanatni islom tug'i ostida birlashtirgani o'z ifodasini topdi.

"Ulug' saltanat"ning turli o'rinlarida "Sho'ro", "Naml", "Baqara", "Fussilat", "Sharh", "Hadis" kabi o'nlab suralarning oyatlari, sahih hadislar, payg'ambarlar va mashhur sarkardalar hayotidan hikoya qiluvchi turli rivoyat va hikoyatlar keltirildi. Yozuvchi bu kiritmalarga odam, olam va zamon konsepsiyasini tasdiqlovchi muayyan badiiy-estetik vazifalar yukladi. Personajlar hikoyasi tarzida asarga olib kirilgan an'anaviy boshlama, kiritma epizod, hikoya, rivoyat, afsona, latifa shaklidagi kiritmalar roman-tetralogiya badiiy falsafasini shakllantirish va ifodalash, qahramonlar milliy-mental qiyofasi, e'tiqodiy qarashlarini asoslash, ruhiy-psixologik olamini dalillash imkonini berdi.

⁶² Назаров Б. Юксак тарихий эътиқодга муносиб бадий самара / Улуғ салтанат васфи. Адабий-таҳлилий мақолалар тўплами. – Т.: Машхур пресс, 2017. – Б.59

Amir Temur obrazi tarix o'z zimmasiga yuklagan yer yuzida adolatni barqaror qilishdek zalvarni anglab yetgan inson sifatida tasvirlandi. Sohibqiron hamisha adolatli qarorlar chiqarishga, qo'l ostidagi kishilarga nisbatan shu yetakchi tamoyil asosida munosabatda bo'lishga intiladi.

Amir Temur obrazini xarakterlovchi muhim jihatlardan biri shunda ko'rinadiki, u moddiy dunyoni to'g'ri izga solishga astoydil bel bog'laganiga qaramay, ko'ngil tilaklarining ro'yobi uchun zamon talotumlari hamisha ham imkon bermagani, bunyodkorlikni hohlagani holda, ba'zan vayron qilishga ham majbur bo'lganidan behad afsus chekadi. Turon Sultoni foni dunyoning turfa savollariga javob izlarkan, bosib o'tgan yo'llarini sarhisob qilib, o'z ko'ngliga taskin bergulik sabab topishga, ruhan xotirjam bo'lishga urinadi. U hatto og'ir betob bo'lishiga qaramasdan, Chin muammolari, To'xtamishxon va Jo'ji ulusi masalalari, farzandlar, nabiralar qismati hamda el-ulus taqdiri haqida teran o'y-xayollarga g'arq bo'ladi.

Amir Temur bunyod etgan ulug' saltanatining bosh maqsadlaridan biri Buyuk ipak yo'lini qo'lda saqlab, tijoratni rivojlantirish edi. Zotan muzaffariy hukmdorlarning o'zaro taxt talashlariga barham berilsa, savdo ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish imkoni tug'ilardi. Fors hokimi Shoh Shujo oilasi bilan quda-andachilik rishtalarini o'rnatishga intilish zahirida ham shu maqsad yotardi.

Muallif Amir Temur shaxsini millat fidoyisi, ulug' saltanat barpo etgan sarkarda, davlat arbobi bo'lishi barobarida mehribon ota va oilaparvar inson sifatida ko'rsatilishi ham diqqatga sazovor. Romanda shahzoda Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, qizi Oqa Begimning bevaqt vafotidan mislsiz qayg'u-g'amga botib, davlat ishlari-yu toju taxt havasi ko'ngliga sig'magan hukmdorning so'ngsiz iztiroblari mahorat bilan tasvirlangan. Tadqiqotda bunday o'rinlar badiiy matnlar misolida tahlilga tortildi.

Adib tetralogiya syujetida tush motivini keng qo'llaydi. Jumladan, muallif Amir Temur hayotining so'nggi kunlari – vafot etishi bilan bog'liq sahnani ramz va ishoralarga yo'g'rilgan an'anaviy tush motivi vositasida badiiy ifodalaydi. Amin Temur o'z tushida osmon toqiga tiralib, muallaq turgan narvondan samovotga ko'tariladi. U narvonning oltmish to'qqizinchi poyasiga yetganidan so'ng narvon o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi.

Ko'rinadiki, yozuvchi Sohibqironning jisman abadiylikka doxil bo'lib, ruhining arshi a'loga ko'tarilishini e'tiqodiy nuqtai nazardan yondashib, psixologik jihatdan asoslay olgan. Tetralogiyadagi ushbu motiv tasviri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidagi ⁶³ O'zg'urmushning tushi bilan adabiy ta'sir, ijodiy o'zlashtirish, mushtaraklik va o'ziga xoslik yo'sinida qiyosiy o'rganildi.

Umuman, roman-tetralogiyada Sohibqiron Amir Temur obrazi Muhammad Alining ijodiy niyati, estetik ideali va badiiy konsepsiyasiga muvofiq tarzda turfa rakurslardan badiiy kashf qilingan. Tarixiy va badiiy haqiqat mutanosibligi ta'minlangan.

⁶³ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу Билиг / Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўзбоши муаллифи Б.Тўхлиев. – Т.: Юлдузча, 1990. – Б.129-130.

Bobning *“Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida Temuriy shahzodalar obrazi*” nomli ikkinchi paragrafida Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo va Muhammad Sulton Mirzo obrazlarining badiiy tasvirlari tarixiylik konsepsiyasi asosida o‘rganilgan.

Roman-tetralogiyaning birinchi kitobi – “Jahongir Mirzo” romanida shahzoda Jahongir Mirzo obrazi markaziy planda turadi va adib bu xarakterni tarixiy haqiqatga muvofiq tarzda ifodalashga harakat qiladi. M.Ali Sohibqiron aynan shu o‘g‘lini valiahd sifatida tanlashi asl sababini qahramon xarakteriga xos ibratli fazilatlaridan kelib chiqib dalillab, assotsiativ tarzda ochishga intiladi⁶⁴.

Amir Temur betob o‘g‘li Jahongir Mirzoni o‘ylarkan, qahramon xayollari beixtyor tarzda, to‘ng‘ich farzandi tug‘ilgani haqidagi quvonchli xabarni eshitgan lahzalar bilan assotsiativ tarzda tutashadi. Bunday tasvir muallif badiiy konsepsiyasi inson umrining har bir oni sinov, shodlik va g‘am esa, hamisha egiz ekani haqidagi Sharq-islom falsafa asosiga qurilganini ko‘rsatadi. Jumladan, bosh qahramon o‘z qalbiga behad katta quvonchni ham, og‘ir g‘amni ham sig‘dira olmaydi. Shodlikdan entikkanida, butun ixtiyorni bir umrlik yo‘ldoshi Turo‘g‘longa berib, boshi oqqan tomonga shamolday yelib ketadi. Zotan, ayni damdagi quvonchlarini bepoyon kengliklarga sig‘dira olardi. Demak, M.Ali assotsiativ tasvir orqali makon va zamonning ikkita nuqtasini qahramon xotirasida tutashtiradi va badiiy voqelik ruhiyatda kechishini ta‘minlaydi. Psixologik tasvirni chuqurlashtiradi. Harakatning botinga ko‘chirilishi betob Jahongir Mirzo obrazining go‘daklik, bolalik, o‘spirinlik va yigitlik davrlarini assotsiativ tarzda tutashtirish, ruhiy-psixologik dalillashda liro-romantik ifoda uslubidan foydalanishida ham qo‘l kelgan.

Bizningcha, yozuvchining liro-romantik ifodaga mayl bildirishi uning o‘zbek qahramonlik va romanik dostonlari, shuningdek, “Ramayana” hind eposi, “Shahriyor” va “Masposhsho” qoraqalpoq dostonlarini milliy tilimizga o‘g‘irgani, ulardan kuchli ta‘sirlangani bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi.

Tetralogiyaning keyingi kitobida Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li – Umarshayx Mirzo nomi sarlavhaga olib chiqilib, uning mard sarkarda sifatida Fors hukmdorligiga tayinlanishi va nihoyat 38 yoshida jangda halok bo‘lishi voqealari yoritilgan⁶⁵. Muallif bu o‘rinda ham hayot va o‘lim hamisha egiz, qismat esa belgilangan, – degan badiiy konsepsiyasiga sodiq qoladi.

Tetralogiya uchinchi kitobida Mironshoh Mirzo obrazi yetakchi qahramon sifatida harakat qiladi. Adib uning o‘spirinlik davrini xalq sehrli ertag-u qissalari, naqlar ta‘sirida orzu-intilishlarlar quchog‘ida tasvirlaydi. Natijada, u anchagina quv, jasur yigit bo‘lib ulg‘ayadi. Tabiiyki, tetralogiya bayon uslubi ham xalqona tus oladi. Ayni paytda, shahzodani qurshagan odamlar ta‘sirida uning tabiatida qiziqqonlik, shafqatsizlik va makkorlik illatlari ham paydo bo‘ladi. Muallif bu obrazning maishat-u mayxo‘rlikka berilib, zinodan hazar qilmaydigan kimsaga

⁶⁴ Qo‘ylijeva G.N. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining birinchi kitobi “Jahongir mirzo” romani haqida mulohazalar // Filologiyaning umumiy masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Jizzax, 2021. –B. 344-347.

⁶⁵ Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т.: Ёзувчи—хазина, 1995. – Б. 84

aylanish jarayonini tabiiy, ijtimoiy omillar ta'siri bilan bog'lab ishonarli tasvirlashga erishadi. Mironshoh Mirzo va malika Xonzodabegim oilaviy munosabatlarini tasvirlashda Eron shohi Bahrom Go'r va Dilorom qissasidan foydalanadi. Shikor va ov voqeasida bu hol yorqin kuzatiladi. Shahzodaning o'ljani qo'lga kiritolmay, otdan yiqilishi voqeasi orqali ramziy-ishoraviy mazmunni kuchaytiradi. Ma'sum ko'zlari hayrat-u hadikka to'la, nozik-nihol, go'zal va ko'rkam ohu ham o'z ma'nosida, ham Xonzodabegim obrazini tamsil qilib keladi. Shahzodaning ishratga berilish hollari, malikaga nisbatan andishasizligi ham Bahrom va Dilorom ishqiy mojarolarini esga soladi. Keltirilgan misollar roman-tetralogiya syujet liniyasi folklor va mumtoz adabiyotdan ijodiy ta'sirlanish hisobiga ancha kengaygani, ifoda uslubi rakurslari turfalashganini ko'rsatishi jihatidan xarakterlidir.

Valiahd nabira – Muhammad Sulton obrazi dovyurak, bilimdon, nozikta'b, husnixatga mehr qo'ygan iste'dodli yigit sifatida turfa rakurslardan tasvirlangan. Yozuvchi uning ilm-u salohiyatini namoyon etish maqsadida nasx, tavqe', ruk'a, suls, kufiy, rayhoni singari eski yozuv turlari va ularning turfa imkoniyatlari, o'zaro nozik farqlari haqida ancha mufassal ma'lumotlar keltiradi. Harfiy san'atdan foydalanilgan bunday tasvir obrazning yorug' niyatlari, go'zal orzularini ko'rsatish, unga nisbatan alohida mehr uyg'otishga xizmat qiladi. M.Ali adabiy mistifikatsiy⁶⁶ usulini qo'llab, shahzodaning kundaliklari orqali uning La'lchechak (Sog'inch bika)ga bo'lgan muhabbati bilan bog'liq ko'ngil talpinishlarini ta'sirchan ochishga muvaffaq bo'ladi. Jahongir Mirzo va Muhammad Sulton ishq-muhabbat kechinmalari tasvirida an'anaviy oshiqlarga xos goh hud va gohida behud bo'lish hollari kuzatilsa, Axiy Jabbor obrazida mumtoz dostonchilik va ilk tarixiy romanchilikda kuzatilgan homiy obraziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi⁶⁷.

